

ISBN 978-83-68188-32-5

Nasimova SH.S.

SHAHAR MUHITIDA KICHIK ME`MORIY SHAKLLAR

Monografiya



iScience

Warsaw, Poland - 2025

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

Nasimova SH.S.

SHAHAR MUHITIDA KICHIK ME`MORIY SHAKLLAR

Monografiya

Warsaw - 2025

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Ilmiy kengashining qarori bilan (№ 2-son bayonnoma, 2025y. 16- sentabr) nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar:

D.Z. Kamalova – professor

B.B. Mustaev – arxitektura nomzodi, dotsent

Nasimova SH.S. Shahar muhitida kichik me'moriy shakllar. Monografiya. – Warsaw: iScience Sp. z.o.o. – 2025. – 60 p.

Monografiyada shahar muhitida kichik memoriy shakllarga doir umumiy tushunchalar, shahar muhitida kichik memoriy shakllarning kelib chiqishi, shakllanish tarixi, arxitektura va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning uslubiy yo'nalishlari, arxitekturada shakllarning o'zgaruvchanligi, jonli tabiatdagi konstruktiv va biotektonik shakllar, shahar muhitida kichik memoriy shakllar sohasidagi ilmiy-texnik kashfiyotlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Bundan tashqari, O'rta Osiyo mamlakatlari arxitekturasida shahar muhitida kichik memoriy shakllar yo'nalishi hamda bioarxitekturaning tipologik ko'rinishlari yoritib berilgan. Shuningdek, shahar muhitida kichik memoriy shakllarning istiqbollari, tasnif tizimi, amaliyotda qo'llanilishining asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan. Monografiya O'zbekiston Respublikasidagi barcha loyiha tashkilotlarida faoliyat yuritib kelayotgan loyihachi arxitektor va dizaynerlar hamda mazkur sohaning barcha qiziquvchilariga mo'ljallangan.

В монографии представлены общие представления о малых мемориальных формах в городской среде, их происхождении и истории формирования, стилевые направления взаимоотношений между архитектурой и природой, изменчивость форм в архитектуре, конструктивные и биотектонические формы живой природы, а также научно-технические достижения в области малых мемориальных форм в городской среде.

Кроме того, освещаются направление малых мемориальных форм в городской среде в архитектуре стран Средней Азии и типологические виды биоархитектуры. Также разработаны перспективы развития малых мемориальных форм в городской среде, их классификационная система и основные принципы применения в практике.

Монография предназначена для проектировщиков-архитекторов и дизайнеров, работающих во всех проектных организациях Республики Узбекистан, а также для всех заинтересованных специалистов этой области.

The monograph presents general concepts related to small memorial forms in the urban environment, their origins and development history, stylistic directions of the relationship between architecture and nature, the variability of forms in architecture, constructive and biotectonic forms found in living nature, as well as scientific and technological discoveries in the field of small memorial forms in the urban environment. In addition, the monograph highlights the development of small memorial forms in the urban environment in the architecture of Central Asian countries and the typological varieties of bio-architecture. The prospects, classification system, and main principles of practical application of small memorial forms in the urban environment are also presented. The monograph is intended for design architects and designers working in all project organizations in the Republic of Uzbekistan, as well as for all specialists interested in this field.

ISBN 978-83-68188-32-5

© SH.S. Nasimova, 2025

© iScience Sp. z o. o.

MUNDARIJA

KIRISH.....	6
I-BOB. SHAHAR MIKRORAYONLARI HUDUDLARI	
SANA`TING SHAKLLANISH ASOSLARI	10
1.1. Arxitektura va shaharsozlik shakllanishining tarixiy rivoji.....	10
1.2. Shahar muhitini rivojlanishida ijtimoiy omillarning roli.....	18
1.3. Shahar arxitekturaviy landshaftida badiiy vositalarning qo`llanilishi	25
II BOB. SHAHAR MUHITINI TIZIMLI KOMPLEKS	
LOYIHALASH TAMOYILLARI.....	36
2.1 Shahar muhiti fazosini tashkillashtirishda funktsionallik ekologik va estetik talablar	36
2.2. Muhit obyektlarini ko`kalamzorlashtirishda o`simliklar va kichik me`moriy formalar kompozitsiya vositalarisi fatida.	42
2.3. Ko`p qavatli turar joylar hovlilari landshaft muhitida yoritish.....	48
III-BOB. SHAHAR AHOLISI IJTIMOIIY-MADANIY SALOHIIYATI	
VA ESTETIK EHTIIYOJLARINI BARQARORLIGINI	
TA`MINLASH	53
3.1. Shahar muhitining arxitekturaviy va dizayn yechimida funktsionallik va kompleksli yechimini ta`minlash tamoyillari.	53
3.2. Binolarni shakllantirish yondashuvida shahar muhitini tabiat qurshoviga integratsiyalash (yaxlit holga keltirish) nuqtai nazaridan o`zgartirish.	54
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	58

ОГЛАВЛЕНИЕ

ВВЕДЕНИЕ	6
I-BOB. SHAHAR MIKRORAYONLARI HUDUDLARI	
SANA`TING SHAKLLANISH ASOSLARI	10
1.1. Историческое развитие формирования архитектурной среды.	10
1.2. Роль социальных факторов в развитии городской среды.....	18
1.3. Использование художественных средств в архитектурном ландшафте города	25
ГЛАВА II. ПРИНЦИПЫ СИСТЕМНОГО КОМПЛЕКСНОГО ПРОЕКТИРОВАНИЯ ГОРОДСКОЙ СРЕДЫ	36
2.1. Функциональные, экологические и эстетические требования при организации городского пространства	36
2.2. Использование растений и малых архитектурных форм как композиционных средств при озеленении объектов среды	42
2.3. Роль средств освещения в ландшафтной среде дворов многоквартирных домов.....	48
ГЛАВА III. ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОСТИ СОЦИАЛЬНО- КУЛЬТУРНОГО ПОТЕНЦИАЛА И ЭСТЕТИЧЕСКИХ ПОТРЕБНОСТЕЙ ГОРОДСКОГО НАСЕЛЕНИЯ.....	53
3.1. Принципы обеспечения функциональности и комплексного решения в архитектурно-дизайнерском оформлении городской среды.	53
3.2. Изменение подходов к формированию зданий с точки зрения интеграции городской среды в природное окружение (создание единого целого)	54
СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ.....	58

CONTENTS

INTRODUCTION	6
CHAPTER I. FOUNDATIONS OF THE FORMATION OF ART IN URBAN MICRONEIGHBORHOOD AREAS	10
1.1. Historical development of architectural environment formation....	10
1.2. The role of social factors in the development of the urban environment	18
1.3. Application of artistic means in the architectural landscape of the city.....	25
CHAPTER II. PRINCIPLES OF SYSTEMATIC AND COMPREHENSIVE DESIGN OF THE URBAN ENVIRONMENT ..	36
2.1. Functional, ecological and aesthetic requirements in the organization of urban space.....	36
2.2. Plants and small architectural forms as compositional tools in environmental landscaping.....	42
2.3. The role of lighting tools in the landscape environment of courtyards of multi-storey residential buildings.....	48
CHAPTER III. ENSURING THE SUSTAINABILITY OF THE SOCIO-CULTURAL POTENTIAL AND AESTHETIC NEEDS OF URBAN RESIDENTS	53
3.1. Principles of ensuring functionality and comprehensive solutions in the architectural and design development of the urban environment. ...	53
3.2. Transforming approaches to building formation from the perspective of integrating the urban environment into the natural surroundings (creating a unified whole).....	54
LIST OF REFERENCES.....	58

KIRISH

Mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishidan avval shahar va qishloqlarda turar joy va jamoat binolari qurilishi bir xil ko'rinishda oddiy va sodda, murakkab va badiiy elementlarsiz davlat qurilish komiteti tomonidan belgilab qo'yilgan standart asosida qurilgan. Umumiy bino maydoni katta bo'lmagan, ma'lum meyorlarga asoslangan namunaviy binolar qurilgan.

Mustaqillik yillari davomida esa, iqtisodning hamma sohalaridagi rivoj natijasida Respublikamizning barcha shaharlarini arxitekturaviy ko'rinishi sezilarli darajada o'zgarmoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishidan avval shahar va qishloqlarda turar joy va jamoat binolari qurilmalari bugungi kun shaharsozlik talablariga javob beraolmaydi, chunki shaharlarda keskin tus olga urbanistik taraqqiyotyoti oldingi tipologik normativlarni bugungi talablariga javob beraolmasligi bu tizimga o'zgartirishlar kiritishni taqazo qilmoqda. Bir xil ko'rinishlarni, o'ta oddiy va soda shakllarni, murakkab va badiiy elementlar bilan almashtirish, umumiy muhitni kompleks hal qilish, zamonaviy me'moray printsiplarga va yangi me'yorlarga tayangan holda ish olib borish lozim.

Namunaviy loyihalarda arxitekturaning milliy an'analari hisobga olinmagan, balki qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi zavodlarning mahsulotlariga asoslanib, hamda qurilayotgan inshootni narxini kamaytirishga harakat qilingan. Bu barchasi shahar va qishloqlardagi binolarning deyarli bir xilda qurilishiga olib kelgan. Hatto turar joy binolariga umumiy maydoni chegaralangan tipovoy loyihalar ishlab chiqilgan. Bu barchasi shahar va qishloqlardagi binolarning deyarli bir xilda qurilishiga olib kelgan. Jumladan, yangi integratsion texnologiyalarni kirib kelishi, eskicha tamoyillardan voz kechish kerakligini ko'rsatish kerak. Hatto turar joy binolariga umumiy maydoni chegaralangan tipovoy loyihalar ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda me'morlarning imkoniyatlariga keng yo'l ochilmoqda va bu imkoniyatlar shahar qurilishi loyihalari, aholi punktlarini loyihalashning har bir sohasida amal qilina boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari arxitektura va qurilish sohalariga yangicha o'zgarishlar kiritilishiga sabab bo'lmoqda. Arxitektura-qurilish sohasini boshqarishning shaharsozlik faoliyatiga innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish imkonini beruvchi zamonaviy tizimni yaratish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning shaffofligini ta'minlash maqsadida, shuningdek, 2017-2021 yillarda

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi tashkil etildi.

Jumladan, qarorda "Arxitektura va qurilish sohasini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish hududlarning zamonaviy qiyofasini shakllantirish, hayot va tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan shaharsozlik faoliyatini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarishning muhim sharti hisoblanadi".

Yana shuni aytib o'tish joizki, mustaqillik yillarida birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning tashabbuslari bilan viloyatlardagi me'moriy-obidalar, yodgorliklar ham qayta tiklab yangilandi.

Shahar, qishloq qurilishi, ko'priklar, turli madaniy-ma'rifiy maskanlar, o'quv binolari qurilishiga katta e'tibor berildi. Bu esa o'z navbatida me'morlarning chegaralanmagan va boy imkoniyatlarini namoyon etishga zamin yaratdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Maxsus loyihalar asosida juda ham ko'rkam davlat miqyosidagi inshootlar qurildi. Masalan, Oliy Majlis, Temuriylar muzeyi, Oqsaroy, Muqumiy nomidagi milliy teatr, O'zbekiston Respublikasi Milliy Banki, Asaka banki, Anjumanlar saroyi, San'at Gallreyasi, A.Navoiy nomidagi kutubxona, Konservatoriya bir qator sog'liqni saqlash binolari, sport muassasalari, savdo-sotiq inshootlari va bozorlar, umumiy ovqatlanish majmualari kabi binolar bunga misol bo'la oladi.

Monografiya ob'ekti. Respublikamizdagi an'anaviy va xorijiy shahar mikrarayonlari maydoni landshaft san'ati, kichik me'moriy shakllar va badiiy vositalar, ko'cha va trotuarlar yon atroflari, jamoat va turar-joy binolari hududlari, ularning shakl va assortimentlari, dizayni bularning barchasi mazkur dissertasiyaning tadqiqot ob'ekti hisoblanadi.

Monografiya predmeti. O'zbekistonda mikrarayon hududlarini tashkil qilishning an'anaviy va xorijiy tajribalarini o'rganish va taqqoslash asosida tegishli ilmiy xulosalar chiqarib, yuqorida qo'yilgan muammolarni yechishdan iboratdir.

Monografiya maqsadi. Tadqiqot ob'ekti va predmetiga kirgan masalalarni Vatanimiz va xorijiy misollar, amaliy tajriba va maxsus adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish asosida O'zbekistonda ushbu san'atini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Monografiya vazifalari.

- Shahar mikrarayonlari muhitining landshaft yechimida kichik me'moray formalarni shakllantirishda badiiy vositalardan foydalanish mavzusi bo'yicha ma'lumotlar to'plash va o'rganish va tadqiq qilish.

- Aholining yaxshi yashashi va faoliyat olib borishi uchun yanada qulay shart-sharoitlarni yaratish borasida jahon tajribasini o'rganish va uni loyihamda aks ettirib hayotga tadbqiq etish.

- Shahar mikrorayonlarida yashil zonalar tashkil etish va unda art ob`yektlar ,yoritish uskunalarini qo`llash usullarini mazmun va mohiyatini o`rganish.

- Arxitektura va shaxarsozlik sohasidagi qonun hujjatlariga rioya qilgan taklif loyiha taqdim qilish.

- Loyihani amaliyotda qo`llash.

Monografiya ilmiy yangiligi: Shahar mikrorayonlari muhitining landshaft yechimida kichik me`moriy formalarni shakllantirishda badiiy vositalardan foydalanish mavzusi bo`yicha ma`lumotlar to`plash va o`rganish asosida tadqiq olib borilgan va ilmiy xulosalar berilgan.

- Aholining yaxshi yashashi va faoliyat olib borishi uchun yanada qulay shart-sharoitlarni yaratish borasida jahon tajribasini o`rganish va uni loyihamda aks ettirib hayotga tadbiq etish .

- Shahar mikrorayonlarida yashil zonalar tashkil etish va unda art ob`yektlar ,yoritish uskunalarini qo`llash usullarini mazmun va mohiyatini o`rganilib taklif loyihalar ishlab chiqilgan.

- Arxitektura va shaxarsozlik sohasidagi qonun hujjatlariga rioya qilgan taklif loyiha taqdim etilgan.

- Loyihani amaliyotda qo`llash takliflari berilgan.

Monografiya asosiy masalalari va farazlari. O`zbekistonda mikrorayonlar muhitini zamon talablari asosida rejalashtirish ishlarini keng jamoatchilikka ommalashtirish va tushuntirish.

**Monografiya mavzusi bo`yicha adabiyotlar sharhi (tahlili).** O`zbekiston shahar mikrorayonlarini loyihalash, muhitining landshaft loyihalash,kichik me`moriy formalarni shakllantirilishida badiiy vositalardan foydalanish mavzulari ustida: A.V. Ikonnikov, A.S. Uralov, X. Po`latov, M. Miryusupova, M. Zoyirova, O. Salimov, Sh. Nurmuhammedova, B. Saidova, A. Sharipov, D. Nosirova, A. Rizaeva, M. Roziqberdiev, A. Tolipov G.A. Pugachenkova, U. Alimov, Sh.D. Asqarov, M.S. Bulatov, M. To`xtaxodjaeva, M.Q. Ahmedov, A.S. Uralov, L.A. Adilova, K.D. Raximov, T.F. Qodirova, N.V. Drobchenko, M.A. Yusupova, K.D. Sattarova, D.A. Nozilov, T.Sh. Shirinov, A.S. Berdimurodov, T.Sh. Mamatmusaev, X.X. Kamilova, S.N. Sadiqova, B.B. Mustaev, M.A. Talipov, Sh.I. Abdullaeva, M.T. Maxmudova, N.N. Fayzullaeva, A.E. Jonuzoqov, F. Maksimov va boshqalar tadqiqot olib borganlar.Nomlari keltirilgan tadqiqotchilarning sa'y-harakatlari bilan O`zbekistonda shaharsozlik sohasida, turar joy binosi hovlilari atrofni landshaft loyihalash ,kichik me`moriy formalarni to`gri qo`llash,atrof muhitni yoritish ,landshaftda badiiy formalarning ahamiyati sohasidagi ilmu-

fan rivoji ancha mustahkamlandi, qator darslik, o'quv qo'llanma va monografiyalar yaratildi.

Monografiya nazariy va amaliy ahamiyati. Uning nazariy ahamiyati shundaki, mazkur dissertasiya materiallari "Landshaft dizayni" ta'lim yo'nalishi bakalavrlari va "Landshaftlar arxitekturasini" magistratura mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga "muhitlar dizayni" fanini chuqurroq o'rganishda va undan mustaqil ishlarni bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot amaliy ahamiyati esa mazkur tadqiqot materiallaridan muhitlarni tashkillashtirishda kichik me'moriy formalar va badiiy vositalarni qo'llash va loyihalash ishlarida amaliy qo'llanma tarzida foydalanilishi mumkin.

Monografiya qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqot uslubi dialektik tushunish yo'li-kuzatishdan amaliyotga umimlashtirish orqali o'tishga asoslangan. Mazkur metodik uslub ishini bajarish ketma-ketligini aniqlaydi: a) maxsus adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish; b) naturada tadqiqotlar o'tkazish; g) naturaviy va ilmiy materiallarni umimlashtirish; d) ilmiy-amaliy loyihaviy takliflarni ishlab chiqish.

Ish tuzilmasining tavsifi. Mazkur dissertasiya korish, 3 ta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va jami 80 betni tashkil qiladi. Foydalanilgan adabiyotlar soni ta, ilovalarda keltirilgan rasmlar soni tadan iborat.

I-BOB.

SHAHAR MIKRORAYONLARI HUDUDLARI SANA`TINING SHAKLLANISH ASOSLARI

1.1. Arxitektura va shaharsozlik shakllanishining tarixiy rivoji.

Arxitekturani yaxshi anglash shaharsozlikni tushunishga zamin yaratadi. Ma'lumki, arxitektura asari uch tomonlama – funksiya, konstruksiya, estetikabo'yicha sifatlanadi. Shaharsozlik o'zining qulayligi, kommunikativ tizimning mukammalligi, geografik o'rni, madaniy qiyofasi va nixoyat arxitekturaviy muhitning kompozitsion maqbulligi va h.k. bilan baxolanadi. Biroq dunyo shaharlarining xar biri ma'lum tarixiy taraqqiyot davriga ega. Shahar qiyofasi uning o'tmishidagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojining ko'zgusi sifatida va mazkur xalqning bu boradagi amaliy tajribasining naqadar mukammalligi namoyon bo'ladi. Hamon shaharsozlik arxitekturaning bo'lagi ekan, mazkur sifatlar soha asarlari – shaharlarga ham taalluqlidir. Biroq bu sifatlar o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Arxitektura asarida funksiya asosan bir maqsadli bo'lgan holda shaharning funksiyasi ko'p maqsadlidir. Shahar uy-joy hududlari, ko'cha, maydon, suv tarmog'i kabi unsurlardan tashkil topgan. Bular shaharning umumiy ko'rinishini tashkil etadi. Arxitektura hajm va fazoviy muhitning badiiyligi bilan o'lchanadi.

Bu ikki vositaning ahamiyatlari har xil: arxitekturada deyarli teng bo'lgan holda, shaharsozlikda muhitning ahamiyati ustuvordir, hajm esa unga nisbatan kamdir.

Arxitektura ta'limotida o'tmish davrlar me'morchiligini (arxitekturasini) anglash katta ahamiyatga ega. Rostmana, mukammal arxitekturani yaratish uchun uning rivojlanish tartibotlarini (qonun-qoidalarini) o'rganish lozim. Zero zamonaviy arxitektura o'tmish arxitekturasining davomi bo'lib, ikkisi'ham bir yaxlitlikni yaratadi. [3]

Inson faoliyatining qadimiy va nafis sohalaridan biri bu arxitekturadir. Arxitekturaga ta'rif berishdan oldin avval "arxitektura" so'zining kelib chiqishiga nazar tashlaylik. So'z ildizi (yunon tilida)"tektura" qurilish san'ati ma'nosini berib, "arxi" qo'shimchasi esa oliy, yuqori darajada degan ma'noni bildiradi. Demak "arxitektura" – qurilishning yuqori bosqichi, ya'ni oliy darajadagi qurilish demakdir. Aynan shu ma'noda "arxitektor" o'zbek tilidagi "me'mor" so'ziga yaqin turadi. Shuning uchun ham arxitekturaga nisbatan me'morchilik atamasi keng ishlatiladi. Arxitektura qurilish san'atining oliy darajasi, biroq har qanday qurilishni ham arxitektura asariga

tenglashtirish yoki o`xshatish mumkin emas. Chunki qurilish juda keng qamrovli so`z bo`lib, arxitekturaga mos bo`lmagan ayrim sohalarini ham o`z ichiga oladi. Masalan, temir yo`l qurilishi, yer osti quvurlari yoki (shaxtalar)turli inshootlar qurilishi va hokazo. [1]

Demak, har qanday qurilish ham arxitektura bo`lolmaydi, lekin har qanday arxitektura negizida avvalambor qurilish yotadi. Qurilishning arxitekturaga aylanishi uchun u yuqori darajadagi san`at namunasi yoki asari tarzida yaratilishi kerak. Arxitekturani inson amaliy faoliyatining boshqa turlaridan, shu jumladan, qurilishdan farqi shundaki, u foydalilik masalaridan tashqari muayyan tarixiy va ijtimoiy-ma`naviy muhit va davr ehtiyojlarini qondiruvchi mafkuraviy va badiiy estetik vazifalarni ham bajaradi.

Arxitekturaning maqsadi va vazifalari. Arxitektura insonning moddiy va ma`naviy ehtiyojlarini qondiradi. U insoniyat jamiyati yashash va dam olish vositalarining qanchalik zaruriy qismlari (turarjoy uylari, jamoat binolari, bog` va parklar, xiyobonlar va boshqalar)dan tarkib topsa, xuddi shunchalik ishlab chiqarish vositalari (zavod va fabrikalar, elektr va issiqlik stantsiyalari, ishlab chiqarish korxonalari)dan ham tarkib topadi. Umumiy ma`noda arxitektura - bu insoniyatning yashashi va faoliyati uchun sun`iy shakllantiriladigan, amaliy va ma`naviy ehtiyojlarga mo`ljallangan moddiy muhitlar tizimidir. Ayni paytda, arxitektura bu san`at hamdir. Shu boisdan arxitekturada muayyan hayot tarzi, davr tafakkuri va talabi, muayyan estetik va mafkuraviy ehtiyojlar, g`oyalar majmuasi o`zining moddiy va badiiy ifodasini topadi. [1]

**Arxitektura ko`p qirralidir.** U muayyan vazifalarga mo`ljallanib tashkillashtirilgan ichki muhitli binolar, binolar ansambli va kompleksi, shaharlar, qishloqlar, maxsus tashkillashtirilgan tashqi ochiq muhitlar (ko`chalar, maydonlar, istirohat bog`lari, parklar, mahallalar, dahalar)dan tashqari ichki muhitga ega bo`lmagan, biroq ochiq muhitni tashkillashtirishga xizmat ko`rsatuvchi inshootlar va mo`jaz me`moriy shakllar (monumentlar, obelisklar, tasviriy oynalar, ko`priklar, yo`llar, sohillar, puteprovodlar, transport razvyazkalari, favvoralar, zinapoyalar, to`siqlar va sh.k.) hamdir. Ana shu nuqtai nazardan olib qaraganda arxitektura jamiyatning ijtimoiy, ishlab chiqarish va mafkuraviy ehtiyojlaridan vujudga kelguvchi moddiyatdir. Aynan ana shu ehtiyojlar arxitektorlar oldiga aniq vazifalar qo`yadi. Yaratilgan arxitektura jamiyat va uning ma`lum bir davrining moddiy va ma`naviy madaniyatini belgilaydi, o`zida aks ettiradi. [1]

Arxitekturaning asosiy tarmoqlari bir necha.

1. Turar joylar arxitekturas.
2. Jamoat binolari arxitekturas.
3. Sanoat binolari arxitekturas.

4. *Landshaft arxitekturalari.*
5. *Shaharsozlik.*
6. *Me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash. [1]*

Shaharsozlik - bu ijtimoiy-iqtisodiy, sanitariya-gigiyenik, texnik qurilish, transport va arxitektura-badiiy masalalarni birgalikda xal qiluvchi shahar va aholi yashash joylarini rejalashtirish va qurish nazariyasi va amaliyotidir. Shaharsozlik- aholi yashash joylari va aholini joylashtirish tizimining urbanizatsiyalashgan muhiti shakllanishida kompleks va ko'p tomonlama ishlab chiquvchi jarayon hisoblanadi. Shaharsozlik faoliyatiningobyektiga rejabiy hududlar va aholi punktlari, turar joy tumanlari va sanoat, dam olish hududlari va shahar hududining boshqa rejalashtirish elementlari kiradi.

Shahar - bu bir-birlari bilan bog'liq bo'lgan turar joy, turli xil qurilma, korxona va sanoat binolari majmuasidan iborat. Har kuni shahar minglab tonna xomashyo va oziq ovqatlar iste'mol qiladi, minglab tonna sanoat va boshqa chiqindilarni chiqaradi. Shahar- bu qudratli muhandislik xo'jaligi. Bu yuzlab km suv o'tkazgich quvurlari, elektr quvvati bilan ta'minlash, qozonxonalar, oqova suvlarni tozalash inshootlari. Shahar- bu moddiy va ma'naviy madaniyat durdonalari yaratilib kelingan taraqqiyot o'chog'idir. [4]

Qadimgi shaharsozlik

Shaharlarning ko'pchiligi ibtidoiy-qabilachilik davrida davlatchilikka o'tar vaqtda hunar dehqonchilikdan ajralib chiqq boshlagan davrda vujudga keldi. Tabiiyki, bu jarayon ko'proq dehqonchilik rivojlangan joylarga to'g'ri keladi. Ular esa yirik daryolarning: Dajla, Frot, Nil, Ind (Hind), Xuanxe vohalari hamda Suriya, Eron tog'oldi yerlaridir. Bu joylar yerning shimoliy kengligining 23°-40° gacha bo'lgan mintaqasida joylashgan. Blar dehqonchilik uchun nisbatan qulay bo'lgan yerlardir. Dastlabki shaharlarning paydo bo'lishi miloddan avvalgi 4-3 ming yillik chegarasiga to'g'ri keladi (eneolit, bronza davrlariga) to'g'ri keladi.

Dastlabki shaharlar ma'muriy va diniy markaz edi. Ba'zilar ibodatxonalar oldilarida vujudga kelgan edi. Qal'a yoki O'rda (hokim qarorgohi) sifatida ham ko'rilgan. Dastlabki shaharlarda hunarmandchilik qaror topgan. Ular hokim, ayonlari, qohinlarning talabini kondirgan. Keyinchalik savdo rivojlandi, savdo shaharlari paydo bo'ldi. Shaharlar aholisi amaldorlar, kohinlar, navkarlar, savdogarlar, hunarmandlar va qullardan tashkil topgan edi. [3]

Shaharlarning kolpchiligi avvalida qarorgohlar, manzilgohlar bo'lgan. Qadimda katta qarorgohlar yoki shahar - qarorgohlar ham vujudga keldi.


Bunday qarorgoh va dastlabki shaharlardagi turar-joylariga misol tariqasida Katal Xayyukni (Turkiyada) keltirish mumkin. U urug' jamoasining katta qismi uchun mo'ljallangan edi. Dastlabki muqaddas maydonlarda avval dolmen va mengirlar, keyin esa ibodatxonalar qurilgan. Namuna sifatida Stonxejni (Angliyada) ko'rsatsa bo'ladi. [3]

Qadimgi Misr

Shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi Misrning tabiati, avvalo, Nil daryosi bilan bog'liq. Shaharlar, asosan, ikki qirg'oqdagi cho'zinchoq, eni tor bolgan vohada vujudga keldi. Daryoning tarmoqlarga ajrab ketgan quyi oqimidagina voha eniga yoyilib ketgan.

Qadimgi Misrning dastlabki shaharlaridan biri Naxab (Al-Ka'b) bo'lib, u ilk podsholik davriga mansubdir. Shaharsozlik tarixi nuqtai nazaridan turli davrlarda poytaxt bo'lgan Memfis, Fiva va Axetaton shahari alohida diqqatga sazovor.

Fiva (Fogom vohasida) o'rta podsholik davrida poytaxt bo'lgan. Senuset II Kohun shaharini qurdirgan.



Kaxun shahari. O'rta podsholik davrida barpo bo'lgan.

Old Osiyo


Hudud nomi - «Old Osiyo» hozirgi Iroqqa to'g'ri keladigan joylarga nisbatan ishlatiladi. «Ikki daryo oralig'i», «Mesopotamiya» (yunoncha) iboralari ham qo'llaniladi. Old Osiyoda birin-sirin turli davlatlar paydo bo'ldi.

Bular: Shumer, Akkad, Ko'hna Bobil podsholigi (mil. av. XIX-XVI asr.), Yangi Bobil podsholigi (miloddan avvalgi VII-VI asrlar), Ossuriya (rivojimi. av. XVIII asr boshi, mil. av. XII-IX asr.).

Old Osiyoda miloddan avvalgi IV mingyillikdan shumerlar o'rnashadi.

Ular Ur, Lagash, Uruk shaharlarini barpo etadilar. Bu shaharlarning xususiyati quyidagicha: shakli asari oval bo'lgan, ko'chalar odatda shimoli-g'arbdan, janubi-sharqqa yo'nalgan bo'ladi. Ibodatxona markazda yoki shimoli-g'arbda, sun'iy yoki tabiiy tepalikda qurilgan; ibodatxona maydoni to'g'riburchak bo'lib, unda asosiy bino **zikkurat** edi. Shahar maydonining yoqligi, hovlilar atrofida turar-joylar, saroy va ibodatxonalar shaharda katta ahamiyatga ega bo'lishi Old Osiyoga xos bo'lgan jihatlarini tashkil etadi. [3]

Ur shaharining zikkurati



Bobilning eski va yangi qismlari ajralib turgan. Frot daryosi ustidagi ko'prik 123 m uzunlikda edi. Shaharda 3 saroy bo'lgan. Birinchisi yozgi bo'lib, tashqi devor oldida, Bobil tepaligida qurilgan edi. Ikkinchi saroy janubda edi. Marosimlar ko'pincha tepalik joyda o'tkazilgan. Uchinchi, shimoliy saroy ham shu joyda bo'lgan, lekin u devorning tashqarisida edi.


Janubiy saroy yaxshi o`rganilgan. 5 hovlidan iborat edi. Shimoliy burchagida Semiramida muallaq bog`lari bor edi. U qadimgi yetti mo`jizalaridan biri sanaladi. Shahar o`z kanalizatsiyasiga ega edi. Bobilda, taxminan, 360 ming aholi bo`lgan. Ichki shaharda, taxminan, 80 ming aholi yashagan. [3]

Bobildagi Sammuramat (Semiramida) bog`larining grafik rekonstruksiya

Yunonistonda shaharlar siyosiy va diniy markazlarni ajratgan holda rejalashtirilgan bo`lsa (akropol va boshqalar), qadimiy Rimda shaharlarni to`g`ri burchakli dahalarga bo`lish uslubi qo`llanilgan (Pompey, Ostiya va boshqalar). O`rta asrlarda Yevropada shaharlarni stixiyali, qal`a devorlari atrofida chiziqli va aylanahalqali rejalashtirish xos bo`lgan (Nyordligen Germaniyada, Krakov Polshada, Praga Chexiyada va boshqalar). Rossiyada esa shaharlar tepaliklarda, daryolar kuyiladigan joylarda bunyod etilgan (Kiyev, Chernigov, Novgorod, Pskov va boshqalar), hamma ko`cha (yo`l)lar shahar darvozasiga yoki shahar savdo maydonlariga olib brogan



Uyg`onish davri G`arbiy Yevropa shaharlari uchun markazlarni muntazam rejalashtirish va maydon ansambllaruti yaratish xos bo`lgan (Rimdagi Kapitoliy maydoni, 1546, me`mor Mikelanjelo); shahar -qal`a loyihalari ishlab chiqildi (F. Martini, J. Vazari, V. Skamotssi), shahar



nazariyasi rivojlandi (L. Alberti), shaharlarning turli qulayliklari bo`lgan loyihalari yaratildi (lekin bu loyihalar amalga oshmadi). Barokko davrida kuchqudrat va ulug`vorlik ramzini ifodalagan ansambllar yaratildi; 18-asr o`rtalari-19-asr boshlarida to`g`ri burchakli ko`chalar to`riga asoslangan ochiq maydon

tizimi yuzaga keldi. SanktPeterburg (Peterburg) 3 yo'nalishli rejalash loyihasi asosida qurildi (1703). 19-asrda shaharlar tartibsiz qurilishiga qarshi bo'lgan shahar-bog' g'oyasi bilan bog'liq dezurbanizm rivojlandi. Sanoatdagi tub o'zgarishlar shaharlarning jadal o'sishiga olib keldi. 19-asr oxiri-20-asr boshlarida Yevropada arzon ishchilar shaharchalari va turar joylar majmualari qurildi, bu qurilishlar ta'sirida shahrida majmualarni yaxlit holda vazifalariga ko'ra rejalashtirish loyihasi, binoning joylanishi, dam olish uchun ko'kalamzorlashtirilgan joylar va bolalar maydonchalari, ba'zi jamoat binolari, maishiy xizmat ko'rsatish nuqtalari qurishni o'z ichiga olgan ijobiy usullar ishlab chiqildi. 20-asrda hududiy (mintaqaviy) rejalashtirish yuzaga keldi (Buyuk Britaniyadagi Donkasteri, 1921-22, me'mori L. Aberkrombi va T. Jonson). 1950-yillarda shaharlarni jadal rivojlanishi avtotransportning rivoji, aholi punktlarining ko'payishi, shahar muhitining ifloslanishi shaharini tumanlarga bo'lib loyihalash kabi yangi nazariyalarni keltirib chiqardi. Aholi punktlarini yo'l yoqalab qurish, yuldash shaharlar yaratish rivojlandi; shuningdek an'anaviy binolar qurishdan voz kechib, eski shaharlar tarkibida osmono'par binolar qurish g'oyasi ilgari surildi. Zamonaviy shahrining asosiy vazifalari-individual qiyofaga ega bo'lgan shahar va shaharchalar qurish, shahar ekologik masalalarini hal etish, eski shahar markazlarini saqlab qolish va ilmiy asosda ta'mirlash, madaniy yodgorliklarni avaylab asrash va ta'mirlash, ularning zamonaviy binolar bilan uyg'unligiga erishish.

O'zbekiston hududida dastlabki shaharlar (Sopollitepa, Jarqo'ton) mil. av. 17-14-asrlarda Surxondaryo vohasida jez davrida paydo bo'lgan. Yozma manbalarda esa shahar haqidagi ma'lumotlar Avestopya uchraydi. Hozirgi ba'zi shaharlar (Qarshi - Yerqo'rg'on; Hazorasp - Xumbustepa kabilar)ning shakllanishini tadqiqotchilar mil. av. 10-8-asrlar bilan bog'laydilar. Farg'onadagi eng qadimiy shaharlar (Ashqoltepa, Dalvarzintepa kabilar) ilk temir davriga oid Chust madaniyati (mil. av. 11-6-asrlar) ga mansubdir. Axomaniylar davrida shahar qurish jadallashgan (Xorazmdagi Qal'aliqir, Ko'zaliqir va boshqalar). Kushonlar davrida Sh. nihoyatda ravnaq topgan (Xorazmshohlar poytaxtida muntazam tarhli Tuproqqal'a, Zarafshon vodiysida Buxoro, Farg'ona vodiysida Mingtepa, doira tarhli Bilovur, Chirchiq vodiysida Shoshtepa). Garchi bu shaharlarning fazoviy jixatlari, shakily va landshaftining rejayviy ko'rinishi ma'lum bo'lmasada madaniy qoldiqlar na'munalari o'sha davr ma'naviy taraqqiyotining yuksakligidan dalolat beradi.

O'rta asrlarda shaharlar tuzilishi murakkab bo'lgan, ularning tarkibiga ark, bir yoki bir necha shahriston, rabod (shahriston atroflari) kirgan. Ularning har biri alohida qal'a devori bilan o'ralgan. Afrosiyob (Samarqand), Buxoro, Binkat (Toshkent) Movarounnahrning yirik shaharlaridan bo'lgan.

Bunday shaharlarni va ular atrofidagi kichik shahar va qishloqlarni uzun devorlar muhofaza qilgan (Buxoro, Toshkent tevaragidagi "devor"lar, Samarqand tevaragidagi "Devori qiyomat" va boshqalar).

Temuriylar davrida mo'g'ullar vayronagarchiliklarini bartaraf etish, mamlakat obodonligini ta'minlashda katta shaharsozlik ishlari olib borilgan: Amir Temurning Samarqand va uning atrofi, Shahrisabzda, Banokat (Shohruxiya), Shohruxning Mashhad, Marv va Hirotida amalga oshirgan ishlari. Ulug'bek tomonidan Samarqand registonida 3 imorat qurilishi bilan bu maydon mujassamoti tugallikka erishgan (Registon ansambli). (Ulug'bek davrida bitta madrasa qurilgan, qolgan ikki bino keying asrlarda Yalangtush Baxodir tomonidan qurilgan) Shayboniylar davrida katta hajmlardagi (savdosotiq bilan bog'liq) qurilishlar shaharlar, ayniqsa, poytaxt Buxoroning tizimini mukammallashtirgan. Rivoyatlarga ko'ra, Abdullaxon II ham ming rabot qurdirgan. Ko'p majmualarning shakllanishi aynan shu davrga to'g'ri keladi (Buxorodagi Labihovuz ansambli, Poyi kalon, Qo'sh madrasa, Chor Bakr memoriy majmuasi, Bahouddin majmuasi, Qarshidagi registon maydoni).

19-asrda Qo'qon xonlari tomonidan Sirdaryo bo'ylab bir nechta shaharqal'alar qurilib, kuchli. mudofaa tizimi yaratildi, yangi ariqlar qazildi, Pishpak (Qirgiziston), Shahrixon sh. lari paydo bo'ldi. 19-asrning 2-yarmida qadimiy shaharlar (Toshkent, Samarqand) yonida yoki unga yaqin masofada (Marg'ilonda Yangi Marg'ilon, hozirgi Farg'ona shahri; Buxoroda Kogon kabi) "yangi shahar"lar qurildi.

Ikkinchi jahon urushi yillari O'zbekistonga shimoliy hududlardan korxonalarining ko'chirilishi shaharlar sanoat mintaqalarining keskin kengayishiga olib keldi. Urushdan keyin, ayniqsa, 50–70-yillarda yangi shaharlar qurildi (Navoiy, Zarafshon va h.k.). Yirik tarixiy shaharlarni qayta qurish rejalari ishlab chiqildi.

Fantexnika rivoji va urbanizatsiya sharoitida shahrining roli oshdi, shaharlar bunyod etish va mavjud shaharlarni rivojlantirishga katta ahamiyat berildi. Yangi shaharlar zamonaviy muhandislik qurilmalari bilan ta'minlangan holda bunyod etildi. Yangi shaharlar bilan bir qatorda Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent, Qo'qon kabi qadimiy shaharlarni me'moriy yodgorliklarini saqlab qolgan holda qayta qurishga alohida e'tibor berilmoqda, madaniy yodgorliklar zamonaviy binolar bilan uyg'unlashtirilmoqda.

Mustaqillik davrida O'zbekistonda Shaharlar ko'p jihatdan rivoj topdi, shaharlarning qiyofasi chiroy ochdi. Tarixiy xotira bilan bog'liq bir qancha yodgorlik majmualar yaratildi: Toshkentdagi O'zbekiston milliy bog'i, Xotira va qadrlash maydoni, Shahidlar xotirasi majmualari; Samarqanddagi Imom Buxoriy yodgorlik majmui, Quvadagi Al Farg'oni

majmui; Buxorodagi Chor Bakr, Bahouddin Naqshband ziyoratgohlarida qayta qurish ishlari olib borildi. Eski shaharlarning qadimiy ko'chalarini kengaytirish ishlari amalga oshirildi, ko'plab yangi yo'llar, ko'priklar bunyod etildi. Jumladan, Toshkentda hosil qilingan Kichik halqa yo'li shaharda avtomobil harakatini ancha yaxshiladi. (yana q. Me'morlik, Turar joy). [Vikipediya, ochiq ensiklopediyasidan]

1.2. Shahar muhitini rivojlanishida ijtimoiy omillarning roli.

Insonlarning yashashi, ishlashi va dam olishiga mo'ljallanib tashkillashtirilgan makonni yoki muhitni shakllantirish arxitekturaning bosh vazifasidir. Biroq, uning vazifasi bu bilan cheklanmaydi. Ma'lumki, har qanday muhit odamlar ruhiyatiga, ongining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Chunki arxitektura qo'llaniladigan hajmiy shakllar, moddiy muhit biron bir jozibali ko'rinishga yoki axborotga ega bo'ladiki, ular odamlar didiga, ongiga ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi mumkin. Arxitekturaning vazifasiga ana shu muhitda insonlar uchun o'ziga xos qulaylik va shinamlik yaratishgina emas, balki insonning go'zallikka bo'lgan ehtiyojini qondirish, u yashayotgan jamiyat madaniy hayoti, xalqchil milliy an'analari va ilg'or estetik tuyg'ularini o'zida aks ettirish kabi vazifalar ham kiradi.

Shaharning me'moriy shakllanishi insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiradi. U insoniyat jamiyati yashash va dam olish vositalarining qancha zaruriy qismlari (turar joy uylari, jamoat binolari, bog' va parklar, xiyobonlar va boshqalar)dan tarkib topsa huddi shunchalik ishlab chiqarish vositalari (zavod va fabrikalar, elektr va issiqlik stansiyalari, ishlab chiqarish korxonalari)dan ham tarkib topadi. Umumiy ma'noda shahar muhitini me'moray shakllantirish – bu insoniyatning yashashi va faoliyati uchun sun'iy shakllantiriladigan amaliy va ma'naviy ehtiyojlarga mo'ljallangan moddiy muhitlar tizimidir. Ayni paytda shaharsozlik san'ati hamdir. Shu boisdan shahar muhitini me'moray shakllantirish muayyan hayot tarsi, davr talabi, muayyan estetik va mafkuraviy g'oyalar majmuasi o'zining moddiy va badiiy ifodasini topadi.

Baydjanov I.S. Shahar muhitini me'moray shakllantirish [11]

Arxitektorlar, ma'lumki, nafaqat bino va inshootlar qurish, shaharlar yaratish, balki ochiq fazoviy muhitlar arxitekturasini va ularni tashkillashtirish bilan ham shug'ullanadilar. Bularga ko'chalar, maydonlar, gulzorlar, xiyobonlar, sohillar, mikrorayonlar ichidagi bog'lar, skverlar, bulvarlar, maxsus parklar, istirohat bog'- saroylari, milliy bog'lar, xiyobonlar, mo'jaz bog'lar va tarixiy landshaftlar kiradi. Sun'iy tarzda yaratiladigan bunday ochiq maskanlar ro'yxatini yana ham davom ettirish mumkin. Landshaft arxitekturasining asosiy maqsadi ana shunday ochiq maskanlar muhitini

tabiiy landshaft va sun'iy elem entlar, shu jum ladan, m o'jaz me'moriy shakllar, tashqi obodonlashtirish elementlari va informatsion axborot qurilmalari vositasida kompozitsion badiiy, m e' moriy-rejaviy va landshaft shakllantirishdir.

Arxitektura, shaharsozlik va landshaft arxitekturasi o'zaro uzviy aloqada bo'lib, bir-biridan muhitni shakllantirishda qo'llaniladigan materiallari va vositalari bilangina farq qiladi. Har uchala soha ham kishilik jamiyatining rivojlanish tarixida umumiy bir yo'na Ush va maqsadlar uchun xizmat qilgan. Landshaft arxitekturasi ham arxitektura va shaharsozlik kabi barcha tarixiy ijtimoiy bosqichlarda jamiyat ehtiyojlarini qondirib kelgan va o'z davrining badiiy madaniy hamda umuminsoniy yutuqlarini o'zida mujassamlashtirgan. Landshaft arxitekturasi va uning muhim tarmog'i hisoblangan bog'-parkchilik san'atining o'ziga xos yorqin xususiyati – bu ularni yaratishda qo'llaniladigan tabiiy «qurilish materiallari»dir. Bular safiga, eng avvalo, o'simliklar dunyosi, suv dunyosi, yer, toshlar va um an joy relyefining barcha xususiyatlari kiradi. Aynan shu materiallar ochiq fazoviy muhitni shakllantirishda asosiy manba bo'lib hisoblanadi. [7]

Landshaft arxitekturasi ning ilk shakllanish asoslari va unga ta'sir etgan ijtimoiy omillar.

Eng qadimgi bog'-parklarning fanga ma'lum bo'lganlari yer yuzining dastlabki sivilizatsiyalaridan biri hisoblangan Misr hududida vujudga kelgan. Sug'orilish inshootlari va qurilmalarining rivojlangan tizimiga asoslangan yuksak saviyadagi Misr dehqonchiligi o'lkaga xos issiq, iqlim, jazirama quyosh taftidan bekinish va quyuq soyaga erishish ehtiyojlari bu o'lkada bog'lar yaratishni talab qilgan. Misrda eramizgacha II ming yillik o'rtalaridan boshlangan Yangi podsholik davri naqsh-bezaklarida turli hovuzlar va bir-biridan farqlanuvchi ekinlar va daraxtlarga, to'g'ri burchakli muntazam me'moriy rejaga ega bo'lgan xususiy bog'larning tasvirlari uchraydi. Bunday bog'lar hukmdorlar saroylari qoshida, badavlat uylarning ichki hovlilarida, ibodatxonalar atrofida, ularning muqaddas hisoblangan bo'limlarida qurilgan.

Shahar qal'alari, ehromlar, bog'lar va ulardagi hovuzlar, asosan, to'g'ri to'rtburchakli muntazam simmetrik rejalarda ishlangan.

Karnak shahridagi Amon va Edfu shahridagi Gora ibodatxonalari qoshida «Sfinkslar xiyobonlari» saqlangan bo'lib, ular eramizgacha XV–XIV asrlar landshaft arxitekturasi ning xiyobon ko'rinishidagi yodgorligi hisoblanadi. Odamlar ibodatxonaga sfinkslar xiyoboni orqali kirib kelishgan.




Karnakka kirish, sfinkslar xiyoboni.

Misrdagi eng uzun sfinkslar xiyobonining uzunligi 3,5 kilometrga yaqin bo'lgan. Shahar ko'chasining landshaft muhitini yechish tajribasi ham Qadimgi Misrda ushbu davrga taalluqlidir. Shimoldan janubga qarab bir necha kilometrga cho'zilgan Axetaton shahrining shoh ko'chasi esa har ikki tomonidan baland sfinkslar bilan emas, balki palma daraxtlari bilan chiroyli bezatilgan. To'g'ri chiziqli metrik qatorda joylashgan sfinkslarni palma daraxtlari bilan almashtirish o'sha davr shahar shoh ko'chalarining landshaft yechimida kata yangilik hisoblangan. Shuning uchun ham Misrdagi bu qadimiy xiyobonning kompozitsion uslubi keyinchalik hayotga keng qo'llana boshlangan.

Qadimgi Yunoniston bog'lari

Yunoniston bog'lari ko'p sonli bo'lsa-da, katta bo'lmagan. Turarjoy binolarining ichki hovhlaridagi bog'lar tagiga mozaik rasmlar ishlangan kichik hovuzlar bilan bezalgan. Hovlilarda maxsus quti va yog'och bochkalarda o'stirilgan gullar va butalar so'lim tabiatning mo'jaz bir bo'lagiga aylanib ketgan. Qadimgi Yunonistonda bog'lar gimnaziya qoshida sayrgoh va tafakkuf maskani tarzida ham bunyod etilgan. Unchalik katta bo'lmagan bog'lar ayrim ibodatxonalar qoshida ham tashkil etilgan.



Yunoniston va Ellada shaharlarining ko'chalari hamda jamoat maydonlari - agoralarni me'moriy manzaraviy tashkil etish bobida qiziqarli misollar mavjud. Piyodalar ko'chasini landshaft tashkil etishning mumtoz misoli tariqasida Efesdagi Savdo, Marmar va Kuretes nomli ko'chalarni ko'rsatishi mumkin.

Arkadian savdo ko'chasining har ikki tomoni baland ustunlar qatori bilan bezatilgan. Butun ko'chaga tosh taxtachalar to'shalgan. Yunon shaharlaridagi ochiq maydonlarni shakllantirishda haykallardan keng foydalanilgan. Jumladan, Efesdagi Kuretez ko'chasi shahardagi eng buyuk kishilarning haykallari bilan bezalgan. Qadimgi dunyo landshaft arxitekturasining o'ziga xos asarlari qatoriga Afina akropolidagi afina Promoxosining siymosi ifodalangan haykal hamda Rodos orolidagi Quyosh xudosi Gelios sharafiga o'rnatilgan ulkan haykal «dunyoning ertaknamo mo'jizasi» hisoblangan Koloss ham kiradi. Koloss sohilga hamma tomondan ko'rinish turadigan keng maydonga o'rtilgan bo'lgan.

Shaharsozlik (shahar qurish) – me'morlikning yirik sohasi; shahar bunyod etish nazariyasi va amaliyoti – aholi yashaydigan hududlar (turar joylar)ni loyiha asosida rejalashtirish. Shaharsozlik ijtimoiy-iqtisodiy, sanitariyagigiyena, qurilish texnika, badiiye'moriy masalalar majmuini qamrab oladi. Shaharsozlik majmui me'morlik va qurilish bunyodkorligi, jamiyatning ijtimoiy tizimi va ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyot darajasi, madaniyati, tabiiy iqlim sharoitlari va milliy o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Shaharsozlik o'z navbatida qishloq aholi turar joylarini rejalash, landshaft me'morligi, bog' barpo etish, tumanlarni rejalash, sanoat korxonalari, dam olish mintaqalarini ratsional ravishda joylashtirish, ekologiya masalalari kabi bir necha tarmoqlarga bo'lingan. shahrida turar joylarning nafaqat me'moriy badiiy qiyofasiga, estetik jihatlariga, balki obodonlashtirishga – yo'llar, ayniqsa, avtomobil yo'llarita, infratuzilma (suv, oqava – kanalizatsiya, gaz, elektr va boshqalar muhandislik ta'minotlari)ga katta e'tibor beriladi.

Yangi ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlarda tarxiy tashkil qilishning alohida xususiyatlari Mamalakat shaharlarining demmografik xususiyat

tufayli hududiy o'sishining jadal sur'atlari: shahar yaxlitigini ta'minlaydigan, iqtisodiy o'sishga xizmat qiladigan, muhit masshtabini buzmasdan shahar o'sishiga xizmat qiladigan, hayotiy jarayonlarning oliyjanob munosabatda kechishini ta'minlaydigan fazoviy shakllarini shakllantirish singari bosh maqsadni belgilab beradi. Ikki global ulkan omil O'zbekiston shaharlarining hududiy-fazoviy rivojlanishini ta'minlaydi: Shaharsozlik qurilishi uchun yaroqli hududiy resurslarning kamyobligi; Aholi sonining tabiiy o'sishi, aholi punktlari hududiy o'sishiga olib keladi. Bu omillar respublikadagi erning bahosi qimmatligini va hududiy resurslarning kamyobligini oshirishini belgilaydi. Shunday qilib, hududdan jadal foydalanish fazoviy tashkil etishning asosiy maqsadidir.

O'zbekiston shaharlarining fazoviy tarkibini yo'naltirilgan shakllanishi shahar faoliyat ko'rsatishini yaxshilash, qulay muhitni shakllantirish, hududdan foydalanishni optimallashtirish, shahar estetik sifatini oshirish vositalaridan biridir. Hududni majmuaviy shakllantirish zarurati tarixiy sistemani barcha sistemalar va aholi punktlari elementlarini o'zaro ta'siri muvofiqlashtirilishi sohasi ekanligi bilan belgilanadi. Bu erda shaharsozlik faoliyati sub'ektlari zidiyatli manfaatlar to'qnashadi.

Shaharlar tarixiy tashkil qilinishi rivojlanishining muammolari va ziddiyatlari

Shahar rivojlanishi, aholi sonini o'sishi hisdstdni kengaytirishni qurilish qavatligi va zichligini oshirishni, yangi markazni hosil qilishni, yangi transport turlarini, muhandislik infratuzilmalarini kiritishni talab etadi. Hududiy zahiralarmavjud bo'lmaganda bu masala echimi murakkablashadi. Oxirgi yillar ziddiyati – individual uy joy qurilishini keng rivojlanishidir. Bunda aholi nisbatan qulay uy – joyga ega bo'ladi. Bu jarayon salbiy tomonlari: Hududiy zahiralarmavjud bo'lmaganida bunday qurilish ishlari qimmatbahohaydaladigan yerlar hisobidan yoki qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz hududlarda amalga oshiriladi. Keyingi holatda suv kelish joylari to'silib qolishiga, quruqoqimlarni tuproq to'kib to'ldirilishiga, suvni ifloslanishi va gidrogeologik jarayonlarni buzilishiga olib keladi. Qurilish ishlari yirik shaharlar chegarasida olibborilmoqda va shahar idoralari tomonidan nazorat qilinmaydi.

Hududlar tejalmasdan foydalanilmoqda, bunday holar, ayniqsa, yirikshaharlar uchun maqsadga muvofiq emas. Transport va muhandislik kommuniasiyalari uzunligi o'smoqda. Bundan tashqari O'zbekistonning ko'plab shaharlarida tarixiy tashkil qilishning quyidagi kamchiliklari kuzatilmoqda: harakatlanishga ko'p vaqt sarflanmoqda, bu esa sanoat va seliteb hududlarini muvofiqlashtirilmasdan rivojlantirilishi oqibatidir; yashashning noqulayligi; xizmat ko'rsatish sistemalari

echimlarining samarali emasligi; hududlarniektensiv va qadrsiz turar joy va ishlab chiqarish binolari bilan band qilish; boshko'cha sistemalari va jamoat markazlarini hududiy zahiralarni mavjud emasligi tufayli rivojlantirishning imkoni yo'qligi.

**Shaharsozlik fazoviy ob'ektini tashkil qilish uslubiy qoidalari
quyidagilar:**

funktional, kompozitsion, muhandislik – texnik. Shaharsozlik tarxiy tashkil qilish qoidalari: – Yuqori hajmli ob'ektlarni jamlash yo'li bilan shahar tarxiy karkasini asosiy tarkibiy kommunikastiyalar bo'ylab shakllantirish (savdo, xizmat ko'rsatish, mehnat qilish ob'ektlari, transport markazlari va h.k.)

– ekologik jihatdan eng yaxshi hududlarga seliteb hududlarni joylashtirish.

Turar joy qurilishi eng zich joylashtirish joyi deb karkas mintaqasidan foydalanish.

– Uzluksiz yashil fazolarni shahar suv oqish joylari bo'ylab shakllantirish. Shahar parklarini tabiiy karkas umumiy sistemasiga kiritish; asosiy shahar parkinishahar markaziga yaqin joyga joylashtirish.

– katta yuk aylanali sanoat hududlarini temir yo'llar bo'ylab joylashtirish zarur. Sanoatni seliteb hududga maksimal yaqinlashtirib, sanitar– gigienik sharoitlar ruxsat etgan chegarada joylashtirish. Sanoatning zararsiz turlari vaboshqa mehnat qilish joylarini seliteb hudud mintaqasida magistral tarkiblar bo'ylab joylashtiriladi.

– jamoat transport tugunlar mintaqasida hududdan foydalanish jadalgini o'ttirish tavsiya etiladi.

Shahar aglomerastiyalari. Shaharlar aglomerastiyalarini tarxlashni tashkil qilish asosiy qoidalari:

1. Kichik va o'rta shaharlarni, ularning xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish markazlarini siljitib rivojlantirish;

2. Mavjud aglomerastiyalar hududlarini ixchamligi, funksional tashkilotilishini qayta tashkil qilish, hududlardan foydalanishni jadallashtirish;

3. Qishloq xo'jaligi uchun tabiiy resurslarni tejash, tabiatni va atrof muhitni muhofaza qilish imkonini beruvchi shahar tarkiblarini modelashtirish.

Shahar muhitini shakllantirish qoidalari. O'zbekiston shaharlari muhitini vatarxiy tarkibini yaxshilash uchun mualliflar tavsiya etadilar:

1. Shahar va markaz ixchamligini ta'minlash, bu esa shaharning turlimintaqalarini o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi;

2. Transport tranzitini shahar markaziy qismlarida ta'minlash, markazniortiqcha transport oqimlaridan xalos etish;

3. Markaz masshtabini avtomobillidan yo'lovchi harakatlanishiga o'tkazish;

4. Yagona kompleks mintaqalarga shahar tarkibiy elementlari o'xshashfaoliyatlarini yagona majmuaviy mintaqalarga guruhlash;

5. Ko'p tashrif buyuriladigan ob'ektlarni tarxii karkas tugunlarida jamlash;

6. Shahar atrofidagi mintaqalarni reabilitatsiya qilish;

7. Tarxii tarkib rejasini uyg'unligini ta'minlash.

Xizmat ko'rsatish markazlarini transportga nisbatan joylashtirish. Transportva xizmat ko'rsatish markazlari orasidagi bog'liqlik. Kundalik xizmat ko'rsatishob'ektlarini transport bekatidan turar joy uyigacha bo'lgan oraliqda joylashtirishqulay.

Markazlarga borish transport tezkor turlari, betinim harakatli va tezkor yo'llarrivojlanishi bilan qulayroq bo'lib qoldi.

Xizmat ko'rsatish ob'ektlarini transport infratuzilmasi bo'ylab tashriflar soniva tavsifiga ko'ra joylashtirish lozim: 1. Ommaviy kundalik tashrif buyuriladigan xizmat ko'rsatish muassasalari (ma'muriy, jamoat, ishbilarmon, madaniy – oqartuv, o'quv muassasalari, jismoniy–sport inshootlari, do'konlar va b.) jamoat transporti bekatlariga bevosita yaqinjoylarga joylashtiriladi yoki ulardan 100-150 m masofada.

2. Kundalik tashrif buyurilmaydigan muassasalar (kasalxonalar, qariyalaruylari va h.k) jamoat transport bekataridan 200-500 m masofada joylashtiriladi;

3. Ommaviy tashrif buyurilmaydigan korxona va muassasalar (kimyoviytozalash fabrikalari, mexanik kir yuvish xonalari va b) jamoat transportibekataridan 1500 m masofada joylashtiriladi. Yirik shaharlardagi xizmat ko'rsatish ob'ektlarini joylashtirishda yo'lovchilaroqimini, yirik jamoat binolarining ish tartibini inobatga olish zarur.

Markazlar ijtimoiy infratuzilmasi va sistemalari

Uning asosi sifatida samarali mehnat, jamoat – siyosiy va intellektual faoliyathamda insonlarning turmushdagi faoliyati uchun sharoitlar majmuasini ta'minlabberuvchi moddiy elementlar qabul qilinadi. Shaharsozlik adabiyotida ijtimoiy infratuzilma aholi moddiy va ma'navii ehtiyojlarini qondirishga xizmat ko'rsatuvchi inshootlar, korxonalar va muassasalar majmuasi sifatida e'tirof etiladi. Bu majmua tarkibiga turar joy binolari, savdo vaumumii ovqalanish korxonalari, turli tibbiyot muassasalari, o'quv yurtlari, sport vasog'lomlashtirish inshootlari, dam olish uylari va b. kiradi. Ular turar joy, xizmatko'rsatish sohalari, madaniy – oqartuv sohasi,

rekreasiya sohasi va ombor xo'jaligikabi guruhlarga bo'linadi. Turli ko'rinishdagi infratuzilmalar o'rtasidagi bog'liqlik ijtimoiyinfratuzilmani ishlab chiqarish sohasiga kirib borishida (ishlab chiqarish, sanitar – gigenik va psixogigienik sharoitlarni ta'minlash) va ijtimoiy infratuzilmada ishlabchiqarish faoliyati uchun kadrlar tayyorlash muassasalarini yaratishda namoyonbo'ladi. Ijtimoiy infratuzilma jamiyat mos darajalari uchun turlicha bo'ladi: butunmamlakat infratuzilmasi, iqtisodiy rayon yoki viloyat rayoni, shahar infratuzilmasi, tarkibiga turar joy, umumiy xizmat ko'rsatish sistemasi, rekreastion sistema, ilmiy – tadqiqot va b. kiradi. Aholi migrastiyasi shahar aholisi shakllanishi manbasivazifasini bajaradi. Kadrlarni jalb qilish va saqlab qolish sharoitlarini yaratishmasalalari mehnat resurslari taqchilligini ishlab chiqarishni kengayishi, quvvatinioshirilishi, yangi qurilish majmualarini qurilishi munosabati bilan sezayotganrayonlar va shaharlar uchun muhimdir. Ijtimoiy infratuzilma shakllanishini yangi ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlardaishlab chiqish hali qo'shimcha tadqiqotlar olib borish kerakligini ko'rsatmoqda. [6]

1.3. Shahar arxitekturaviy landshaftida badiiy vositalarning qo'llanilishi.

Landshaft arxitekturasi obyektlarini loyihalashda nafaqat qo'yilganmuayyan maqsad va vazifalarni to'g'ri tushunish, mutaxassislikka doir chuqur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, balki o'z mutaxassisligining mazmuni, mohiyati vatarixiy taraqqiyoti, shu kungacha bu sohada orttirilgan tajriba va yutuqlarni ham puxta egallash zarur bo'ladi. O'tmishda yaratilgan landshaft arxitekturasi obyektlarini loyihalash vaqurishda ajdodlarimiz erishgan me'moriy - rejaviy, badiiy-kompozitsiyaviy, texnik yechimlar va uslublarni o'rganish, ularga tayanib olg'a qarashsiljishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu nuqtai nazardanjahon landshaft arxitekturasinigqadimda, o'rta asrlar va yangi davrda orttirilgan tajriba va yutuqlarini bilish ham foydalidir.

Bundan tashqari, landshaft arxitektorlari dendrologiyani, agroteknikani, me'moriy kompozitsiya varangshunoslik asoslarni yaxshi tushunishlari zarurdir.

Landshaft arxitektori shug'ullanadigan sohalar turli - tumandir. Umuman olganda, ma'lumki arxitektura insoniyat hayoti, yashashi, mehnati va dam olishi bilan bog'liq yopiq, qisman yopiq va ochiq muhitlarni yaratish va shakllantirish bilan shug'ullanadi. Yopiq va qisman yopiq muhitlarga turli xil bino va inshootlar, shu jumladan yer usti va yer osti imoratlari va boshqalar kirsa, ochiq muhitlarga ko'chalar, maydonlar, yashash va ish joylaridagi ochiq maskanlar, bog'lar, skverlar, xiyobonlar, sohillar, milliy

istirohat va maxsus parklar, tarixiy landshaftlar, ichki hovlilar, ishlab chiqarish va sanoat binolarining ochiq hududlari va shunga o'xshash shaharsoziikka xos boshqa ochiq muhitlar kiradi. Agar arxitektorlar yopiq va qisman yopiq muhitlar (bino va inshootlar) va shaharlar yaratish bilan shug'ullansalar, landshaft arxitektorlari aynan ochiq muhitlarni yaratish: loyihalash va shakllantirish bilan shug'ullanadi.

Agar arxitektor yopiq va qisman yopiq muhitlar-imoratlar (binova inshootlami) loyihalash va qurishda turli xil qurilish materiallari va qurilmalari (g'isht, beton, temir-beton, yog'och, shisha, sinch, tent, hajmli blok qurilmalari) obolochkalarni qo'llasa, landshaft arxitektori o'z obyektlari-ochiq muhitlarni yaratishda tabiiy elementlar (o'simliklar, suv, relef) va sun'iy elementlar (mo'jaz me'moriy shakllar, tashqi obodonlashtirish elementlari, to'shamalar, suv qurilmalari, dekorativ haykallar, tasviriv oynashakllari) dan foydalanadi. Arxitektor va landshaft arxitektori orasidagi umumiylik shundaki, ularing har ikkalasi ham o'z obyektlarini yaratishda badiiy – kompozitsiyaviy vositalar: ritm, kontrast va nyuans kompozitsiyaning yaxlitligi va mutanosibligi (proportsionalligi) kabi qonuniyatlarni ijodiy qo'llaydilar.

Landshaft arxitekturasida obyektlarining ko'lami esa nisbatan kichik hududlarga ega, u aholi punktlari, shaharlar va ular atrofidagi ochiq muhitlarni shakllantirish bilan bog'langan. Biroq keyingi davrlarda landshaft arxitektorlarining faoliyat doirasi kun sayin kengayib bormoqda. Shahar ochiq muhitiari, obyektlarini shakllantirishdan tortib, to keng masshtabli milliy bo'lar, xalqaro miqyosdagi ko'rgazma parklar, buzilgan landshaft muhitlarini zamonaviy landshaft obyektlari funksiyalariga moslashtirish, tarixiy bog'-saroylarni qayta tiklashga bo'lgan turli xil vazifalar landshaft arxitektorlari zimmasiga yuklanmoqda. To'liq ishonch bilan aytish murnkinki, kelajakda landshaft arxitektorlarining nufuzi yanada oshib boradi. Ushbu vazifalarni yechishda landshaft arxitektorlari birinchi navbatda estetik, ekologo - gumanistik talablar va ijodiy qonuniyatlar asosida ish yuritmog'i kerak bo'ladi. Ochiq muhitlar obyektlarini yaratishning funksional va texnik tomonlarini e'tiborga olish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi vaqtlarda landshaft arxitekturasining obyektlari muayyan joy, relef, mikrolandshaft va muhitga oroyish berish elementlari bilan bog'liq ergonomik, funksional va texnik masalalarni yechishda landshaft dizayni alohida ijodiy yo'nalish tarzida shakllangan.

Landshaft dizayni ushbu masalalarni yechishda manzaraviy ko'kalamzorlashtirish, flora va fitodizayn, geoplastika, mo'jaz me'moriy shakllar, dekorativ to'shamalar, tashqi obodoniashtirish elementlaridan faol foydalanadi. Uning asosiy maqsadi arxitektura obyektlarini tashqi ochiq

muhit bilan garmonik bog'lash, muhitning sun'iy va tabiiy element lari orasida uyg'unlikni ta'minlash, liar qanday mikro muhitni badiiy-estetik, ergonomik funksional talablarga mos va xos tarzda yaratishdir. [5]

Landshaft dizaynining obyektlariga nafaqat ko'cha va maydonlar, mo'jaz dam olish hududlari (skverlar, bulvarlar, tom usti oromgohlari. sohillar, trotuarlar), turli maqsadlarga mo'ljallangan parklar, turar joylardagi xo'jalik, sport va boshqa maydonchalar, balki jamoat binolarining intereriariga kiruvchi tabiiy landshaft elementlarini, ichki mo'jaz bog'lami. Ichki hovlilarni yaratish ham kiradi. [5] Flora va fitodizayn sun'iv shakllangan me'moriy muhitni turli xil o'simliklar, flora va fitokompozitsiyalar yordamida jonlantirish, muhitni manzaraviy boyitish, ichki yopiq muhitga tabiiy landshaft elementlarini olib kirish masalalari bilan shug'ullanadi florakompozitsiya insonning emotsional holatlariga ijobiy ta'sir qiladi, uning hayotiy tonusi va kayfiyatini oshiradi.

Fitokompozitsiya ("fitontsidlar" so'zidan olingan), bundan tashqari muhit mikroiklimini yaxshilash va uni sog'lomlashtirish samarasiga ham egadir. [5]

Zamonaviy shaharlar markazlari hududini bo'glar, parklar, maydonlar, xiyobonlar, piyodalar ko'chalari va ayrim hollarda qirg'oq bo'ylari tashkil etsa, ushbu hududlardagi elementlarni yagona bog'-park tizimiga birlashtiruvchi va o'zaro bog'lovchi bu piyodalar tizimining tashkil etilishidir. [7]

Bugungi kunda shaharlarimizni, ayniqsa, me'moriy yodgorliklarga boy tarixiy shaharlarimiz markazlarini hatto, qishloqlarda qurilayotgan yangi uy-joy mahallalarini ham piyodalar ko'chalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Dunyo shaharlarining markazlari transport harakatlari va shovqinidan xolilastirilib, piyodalar uchun alohida ko'chalar va piyodalar zonalariga aylantirilmoqda. Qadimiy Samarqand shahridagi Toshkent va Mustaqillik piyoda ko'chalari, Toshkent shahridagi Amir Temur xiyobonini Mustaqillik maydoni bilan birlashtiruvchi piyoda ko'chalar, Buxoroning eski shahar tizimidagi o'nlab piyoda ko'chalari, Shahrisabzdagi Amir Temur piyoda ko'chasi va boshqalar bunga misoldir.

Bu ko'chalarning uzunligi 500-700 metr va hatto 1 km dan kam emas. Chet el shaharlaridagi yuzlab piyoda ko'chalarining uzunligi esa bundan ham kattadir. Bu ko'chalar qanday landshaft va qulayliklarga ega bo'lishi va loyihalaniishi kerak?

Avvalambor bunday ko'chalar toza-ozoda, inson masshtabiga mos, fuqaroviy va osoyishta me'moriy muhitga ega bo'lishi kerak.

Gap ko'cha mebellari, tashqi obodonlashtirish elementlari, bunday ko'chalarga xos bo'lgan savdo, ovqatlanish va dam olish shaxobchalari, daraxtlar, maysalar, gulzorlar va ko'cha yoritgichlarining kompozitsiyalari,

masshtabi va shakllari haqida ketmoqda. Misol tariqasida zamonaviy turar joy kvartali piyoda ko'chalarini landshaftning namunaviy yechimlaridan birini keltirish mumkin.

Piyodalar ko'chalariga xos xususiyatlardan biri-bu ularni qo'llaniladigan maxsus dekorativ to'shamalar, ya'ni yo'l qoplamalaridir. Ularning materiallari, rangi va shakli turlicha bo'lishi mumkin. Biroq ular mustahkam va chiroyli bo'lishi kerak. Materiallar pishiq g'isht, rangli va fakturali beton, tabiiy tosh, bruschatka, toshtaxtalardan, shakli esa to'g'riburchakli panjara, doira, tasma, to'lqinsimon, "asalari uyasi", romb va h.k. ko'rinishlarda, ranglari e'tiborni o'ziga tortmasligi, asosan neytral tonlarda bo'lishi tavsiya etiladi. To'shamalarning tiporazmerlari ikki xildan oshmasligi zarur.

Piyodalar ko'chalarining qiyaligi 6-7% dan oshmasligi, zinapoyalar esa panduslar bilan ta'minlanishi kerak. Piyodalar ko'chalarining landshaft elementlariga tik ko'kalamzorlashtirish elementlari (trelyaj va pergolalar, voishlar), joyi o'zgartiriluvchi gulli tuvaklar, osib qo'yilgan savatchalar va qutilar, rabatkalar, daraxtlar yoki butalardan shakllangan qator soliterlar, dekorativ suv havzalari va favvoralar kiradi.

Uzunroq piyoda ko'chalariga ekilgan daraxtlar qatori bir xillikni yo'qotish uchun har 50-70 metrda so'ng ochiq maysazor, gullovchi buta va gulzorlar bilan almashinib turgani ma'qul. Piyoda ko'chalar tomoniga fasadi bilan chiqib qolgan ayrim nobob imoratlar yoki devorlar yuzasi chirmashib o'suvchi manzarali gulli lianlar bilan yopilishi mumkin. Piyodalar ko'chalariga yorqin rangli savdo reklamalari va ko'cha belgilarini o'rnatish, asfalt to'shamalar yotqizish tavsiya etilmaydi. Ko'cha eni kengroq, uzunligi kattaroq bo'lgan hollarda lining o'rtasiga uzluksiz soya beruvchi manzarali doim yashil dov-daraxtlar ekish, ularning ostiga esa dam olish o'rindiqlarini o'rnatish mumkin.

Shahar magistral ko'chalari

Shahar ko'chalari va xiyobonlari joylashgan joyi va mavqeiga qarab turlicha bo'ladi. Uning eni shunga mos ravishda belgilanib, ko'chalarni ko'kalamzorlashtirish va landshaft arxitekturasini masalalari ham ularning turi va eniga, orientatsiyasiga va joylashgan o'rniga qarab aniqlanadi. Ko'chalar va xiyobonlardagi ko'kalamzorlarning asosiy vazifasi bu aholini changlar, shamollar, shovqin va quyosh nuri taftidan himoya qilishdir. Ayni paytda, ko'chalarning me'moriy-badiiy va landshaft yechimlarining saviyasi ham katta ahamiyatga egadir.

Ko'chalari, asosan, fashqi ko'rinishidan to'g'ri shakllarga ega bo'lgan baland o'suvchi dov-daraxtlar (lipa, topol, klen, yasen va boshqalar) bilan ko'kalamzorlashtirish tavsiya etiladi.

Ko'chalami ko'kalamzorlashtirishning eng oddiy turi-bu ko'chaning harakatlanish chetki qismi va trotuar o'rtasidagi masofa, ya'ni yashil tasmaga qatorlab oralig'i teng daraxtlar o'tqazib chiqishdir. Ushbu yashil tasmaga bir qator daraxtlar ekilganda uning eni 3 m, ikki qator daraxt ekilsa 5 m olinadi. Ko'p qatnovli keng magistral ko'chalarda esa ushbu yashil tasmaning eni 7,5 metrgacha bo'lishi mumkin. Bunday hollarda ko'cha tomondan bir qator daraxt ekib qolgan hududni esa xili, o'lchamlari, bo'yi va shakllari turlicha bo'lgan daraxt va butalardan tuzilgan guruhlar yordamida ko'kalamzorlashtirish mumkin. Ayrim hollarda maysazor ustiga trotuar chetiga yaqin qilib gullar ham ekilishi mumkin.

Chorrahal, ko'chaning burilgan joylari va piyodalar o'tadigan joylar oldiga ekilgan daraxt va butalar transport haydovchilari va piyodalarga yo'lni va harakatlanayotgan transportlarni ko'rishga xalaqit bermasligi, svetaforlarni va yo'l ko'rsatgichlarini to'sib qo'yimasligi kerak.

Tashqi yoritish fonarlarining ustunlarini esa ko'cha o'rtasidagi harakatlanish yo'llarini ajratuvchi yashil polosada joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Yo'llari ajratuvchi yashil polosaga, odatda, yo'llar eni uncha katta bo'lmagan hollarda, butalar va maysazor, yo'llarning eni katta (har tomonga 3-4 yo'nalish) bo'lgan hollarda daraxtlar va maysazorlar, transportlarning burilish joylarida esa pastqam butalar, maysazor va gulzorlar ekiladi.

Trotuarlarning eni katta bo'lsa, o'rta qismiga modulli maxsus yashil kompozitsiyalar, rabatkalar yoki alohida gullar guruhi, pastqam miks-borderlarni shakllantirish mumkin. Ularni tuproqqa ekishning iloji bo'lmasa, sopol yoki beton vazalarga, maxsus qutichalarga ekib joylashtirish mumkin. Keng trotuarlarning bo'ylama o'qi bo'ylab tanasi tig'iz, soya-salqin beruvchi dovdaraxtlarni maxsus lunkalar bilan ekish tajribasi ham issiq iqlimli mamlakatlarda keng tarqalgan. Bunda lunka qoplamasini o'rnatishni unutmash kerak.

Ko'chaning mashinalar harakatiga yaqin ariq bo'ylab butalarni yashil to'siq shaklida ekish tavsiya etilmaydi, chunki ular qishdaqor ko'chkilaridan, yozda esa ko'cha axlatlaridan ozor chekadi.

Ko'chalarga ekiladigan butalarning bo'yi 1,5 metrdan katta bo'lmagan, yaproqlari tig'iz va yaxshi gullovchi turlari tanlanadi, chunki baland butalar trotuar haydovchilarining ko'rish imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Bunday butalarga spireya, tunberg barbarisi, xenomeleslarning turli xillari kiradi. Butalar qatorlab ekilganda yashil qatorning eni bir qator uchun 0.8 m, ikki qator ekilsa-1,5 metrdan kam bo'lmasligi kerak.

Butalardan tuzilgan guruhlarini baland daraxtlar orasiga yoki qatorlar uzilgan joylarga, ya'ni ko'cha tomonga qaragan jamoat binolari oldiga ekish mumkin. Bunday hollarda butalar foniga ko'pyillik o'simliklarni ekish

tavsiya etiladi. Bu ko'chalarni mnanzaraviy bezashga va bir xillikka barham berishga yordam beradi.

Agar ko'cha eni katta bo'lsa ko'cha yonining cheti va trotuar o'rtasiga bulvar shakllantirsa bo'ladi. Uning minimal eni 10 m.

O'rtadan piyodalar uchun yo'lak qilib, o'tirish uchun skameykalarga joy va yo'lakni daraxtlar qatori bilan ko'kalamzorlashtirish mumkin. Agar bulvar eni katta bo'lsa daraxtlar va butalardan tuzilgan guruh kompozitsiyalarini shakllantirsa bo'ladi. Ularning foniga esa ko'p yillik gullovchi o'simliklar ekish zarurki, ularning xillari turlicha bo'lsin (akvilegiya, gaylardiya, liliya, floks metelchatiy). Piyoda yo'lakchasi bo'ylab miks-border kompozitsiyasini qo'llash lozim.

Ko'chalar orientatsiyasiga ya'ni ufq tomonlariga nisbatan joylashishiga qarab kengliklar yo'nalishidagi (o'qi g'arbdan sharqqa), meridional yo'nalishdagi (o'qi shimoldan janubga) va diagonal yo'nalishlardagi (o'qi shimoliy-g'arbdan janubiy-sharqqa yoki shimoliy-sharqdan janubiy-g'arbgga qarab) joylashgan ko'chalarga bo'linadi.

Kengliklar yo'nalishidagi ko'chalarning janub tomonidagi uylar fasadiga quyosh nuri tushmaydi va soyaga muhtoj emas. Bu yerda faqat trotuar soyalantiriladi. Janub tomonda joylashgan uylar ko'p qavatli bo'lganda ulardan tushayotgan soya trotuarni yopadi va trotuar soyalantirishga muhtoj bo'lmaydi. Biroq, ko'chaning shimoliy tarafidagi uylari va trotuarni soyalantirish zarur bo'ladi.

Meridional yo'nalishdagi ko'chalarda vaziyat boshqacha. Bunday ko'chalarning har ikkala tomonidagi trotuarlar va binolar ham quyosh nuridan himoyalanişga muhtojlik sezadi. Diagonal yo'nalishli ko'chalarning janubiy-g'arbgga yoki janubiy-sharqqa qaragan binolari va trotuarlarini ham oftobdan himoyalash zarur. Ayniqsa, o'qi bilan shimoliy-sharqdan janubiy-g'arbgga qaragan ko'chalarda ahvol yanada og'ir bo'lib, tushdan keyin bu ko'chalar trotuarlarini ikki yoqlama qatorlab daraxtlar ekish yo'li bilangina jazirama quyosh nuridan saqlab qolish mumkin. Ko'chalarni ko'kalamzorlashtirishda bu holatlarni e'tiborga olmaslik jiddiy xatoliklarga olib kelishi mumkin.

Xiyobonlar, bulvarlar va skverlar

Yo'laklar va ularning to'shamalari. Yo'laklar bog' kompozitsiyasining eng muhim elementi bo'lib, bog'ga o'ziga xoslik oroyish va tunksiyaviy qulaylik baxshida etadi.

Yo'laklarning qanday to'shamalardan bajarilganligi tashrif buyuruvchilarda katta taassurot qoldiradi. Hozirda bog' yo'laklarining to'shamalari turiga qarab tabiiy tosh, dekorativ yoki beton plitkali, g'ishtli, beton va dekorativ betonli, yog'ochli va o't-maysalilarga bo'linadi. Ularning

har birini o'z o'rnida qo'llay bilish lozim. Masalan, tabiiy tosh mustahkamligi va estetik jihatdan eng yaxshi material hisoblanadi. Ularning turlariga plitnyak, granit, bazalt, porfir, peschaniklar kiradi. Yo'laklar asosan 1,2-1,5 metrdan kam bo'lmashligi, ya'ni ikki kishining yonma-yon bemalolaylanib yurishiga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Ikkinchi darajali yoki unchalik muhim bo'lmagan so'qmoqchalar eni esa 0,5-1 metr olinishi mumkin. Yuzida yomg'ir va qor suvlarining to'planib qolmasligi uchun yo'laklar ikki tarafga qarab ozgina qiya bo'lishizorur. Releflar bor joylarda yo'lak o'rniga zina yoki panduslardan foydalaniladi.

Yo'lak to'shamalariga bob materiallardan biri betonli plitkalaridir. Hozirda ularning rangi, shakli, o'lchami juda katta assortimentlarda chiqarilmoqda. Yo'laklarning shakli va ko'rinishi bog'ning umumiy uslubiga mos kelishi lozim. Masalan, plitkalar bilan yotqizilgan to'g'ri geometrik yo'lak romantikpeyzajli atirgullar klumbasiga hech ham mos kelmaydi. Yo'lak va maydonlarga yotqizilgan to'shamalar foydalanishga qulay, mustahkam va betashvish bo'lishi lozim. To'shama-yo'lak dizaynning eng muhim elementlaridan biridir. Shu bois ularning rangi, uslubi, ashyosi bog'imoratlari me'morchiligiga ham hamohang bo'lishi kerak.

Bulvarlar-shahar muhitini chiziqli ko'kalamlashtirishning asosiy uslubi hisoblanib, piyodalar harakatlanishi, qisqa vaqt dam olishi uchun mo'ljallangan va obodonlashgan yashil maskandir. Ular shaharlarni ko'kalamlashtirishda kata ahamiyatga ega bo'lib, shahar ko'rinishini sezilarli darajada o'zgartiradi va havoni ifloslanishdan saqlaydi. Bulvarlarni o'zbek tilida katta xiyobon deb atashimiz mumkin. Samarqand shahridagi "Universitet xiyoboni" bulvarining umumiy ko'rinishlari va tarhi shular jumlasidan.

Rejaviy yechimiga qarab bulvarlar: to'g'ri chiziqli va halqasimon turlarga bo'linadi. Bulvarlar ilk bor XIX-asrda Yevropa tarixiy shaharlarida zamonaviv transportlar harakatiga xalaqit beruvchi eski mudofaa devorlarini olib tashlash va ularning joyiga aylanma keng ko'chalar qurish oqibatida vujudga kelgan. Venadagi Ringbulvari, Parijdagi katta bulvarlar, Moskvadagi "Bulvarnoe koltso" va boshqalar ana shunday paydo bo'lgan.

Bulvarlarning tarkibiy elementlariga xiyobonlar, yo'laklar, maydonchalar, daraxtlar, butalar, gullar va gazonlar kiradi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng bulvarlar ancha rivojlandi va shahar ko'chalarini piyoda yo'llar va transport qatnovi zonalariga bo'lib berdi.

Bulvarlar uzun va kalta bo'lib, ba'zan bir necha kilometrlab cho'zilishi va o'z ichiga bog'lar, skverlar, piyoda yo'llarni olishi mumkin. Shuning uchun ham bulvarlar kompozitsiyasini tuzish anchayin mushkul ish hisoblanadi. Odatda ularni shahar imoratiaridan 30-40 m narida, intensiv harakatli ko'chalardan esa 40-50 m narida qilib joylashtiriladi. Bulvarlar

yo`lning ikki tomonida yoki yo`lning o`rtasida bo`lishi mumkin. Bulvarlarning minimal eni 18 m qilib belgilangan, bunday o`lchamda uzunasiga 4-7 metrli xiyobon, qisqa dam olish uchun o`tirg`ichlar, yoritgichlar, voish, muzqaymoq ko`shki va axlat qutisi joylashtiriladi. Qolgan qismlar ko`kalamlar bilan to`ldiriladi.

O'zbekiston sharoitining joyga o`rtacha, issiq va quruq iqlimli, serquyoshliligini hisobga olib 1 ga 350-400 ta daraxt, 3-4 mingta buta ekish tavsiya qilinadi. Katta bulvarlarga velo yo`laklar, piyodalar yo`laklari va xiyobonlar joylashtirish tavsiya etiladi.

Skver (uni o`zbekcha sayrgoh desa bo`ladi) shaharlarda hududi uncha katta bo`lmagan (0,5 dan 2 gektargacha), qisqa vaqt dam oladigan ko`kalmazor muhit bo`lib, piyodalar harakatiga ham xizmat qiladi. Skverlar odatda shahar maydonlari va magistral ko`chalariga tutashib, ularning badiiy-manzaraviy bezagi hisoblanadi.

Toshkentdagi Amir Temur, Hamid Olimjon va Xalqlar do`stligi, Samarqanddagi Registon va Ruxobod, Yo`lbarslar xiyoboni, Shahrisabzdagi Amir Temur, Farg`onadagi Al-Farg`oniy va boshqalar ana shunday skverlardir.

Shaharlarning parki bo`lmagan, yeri tanqis bo`lgan (tarixiy markaz, tig`iz qurilgan) qismlarida skverlarning roli kattadir. Bunday holatlarda aholining ochiq landshaftda dam olishga bo`lgan ehtiyojini skverlar orqali qondirish mumkin.

Skverlarning rejaviy yechimi shaharning qayerida, qanday joylashganiga, atrof-muhit qurilmalariga, mahalliy landshaft va iqlim sharoitlariga bog`liq. Skver muhiti ochiq bo`lishi, parter ko`rinishdagi gulzor va maysazorlardan tuzilishi yoki yopiq muhitli daraxtzor va butazorlardan tashkil topishi mumkin.

Skverlar shahar markaziy maydonlarida, turar joy binolari oralig`idagi yashil maydonlarda, nufuzli jamoat binolarining old yoki yon tomonlarida, shuningdek, me`moriy obidalarga tutash ochiq muhitlarda shakllantirilishi mumkin. Agar skver binolar guruhi oralig`ida, tarixiy obidalar yonida yoki trotuar va piyodalar ko`chalariga tutash holda joylashsa, uning rejaviy yechimi diagonal yoki erkin peyzajli uslubda bo`lish mumkin. Agar skver markaziy maydonda, yoki nufuzli me`moriy inshoot oldida joylashsa odatda, u muntazam rejaviy yechimga ega bo`ladi.

Skverning asosiy elementi bu - uning haykali, favvorali, basseynli, gulzorli yoki maysazor fonidagi daraxt va butalarning fusunkor guruhidan tuzilgan markaziy maydonchasidir. Agar skver markaziga biror salobatli monument yoki favvora ishlansa, skver kompozitsiyasi uning badiiy jihatlarini va obrazini ochib berishiga xizmat qilishi kerak.

Skver hududini landshaft tashkillashtirishda har bir obodonlashtirish detali, relief elementi, maydon shakli, uning atrof-muhiti va o‘simliklarga yoki to‘shamalarga alohida e‘tibor berilishi kerak.

Skverlar hududining balansini undagi piyodalar harakatining jadalligiga bog‘liq tarzda quyidagicha belgilash tavsiya etiladi

Skver hududining balansi

T/r	Obodonlashtirish va ko‘kalamlashtirish elementlari	Skver hududining o‘lchamlari, % da	
		Piyodaning jadal harakatiga mo‘ljallangan skverlar	Binolar oralig‘ida yashil rmaydon ko‘rinishidagi skverlar
1	Daraxt va butalar ekilgan maysazorlar	67-71	84-89
2	Maydonchalar va yo‘laklar	23-31	10-15
3	Gulzorlar	1-2	1

Respublikamizning issiq va quruq iqlimi sharoitida skverlar hududi iloji boricha soya beruvchi manzaraviy daraxtlar bilan ko‘kalamlashtirish talab etiladi. Shu maqsadda 1 gektar hududga 340-400 tagacha daraxtlar ekish tavsiya etiladi. Skverdagi asosiy xiyobon enini 4-6 m, yo‘laklar enini 1,5-4 m olish mumkin.

Qirg‘oqlar va sohillar

Qirg‘oq bo‘ylari va sohillar-bu suv havzalari bo‘yidagi imoratlarni va akvatoriyaning bog‘laydigan hajmiy-tarixiy komplekslardir. Ular qum, daryo yoki dengiz bo‘yida joylashgan shanarlarda anchagina hududni egallaydi. Qirg‘oq bo‘yi kompleksi jamoat binolari, turar joy binolari, tabiiy yoki sun‘iy yaratiladigan landshaft, hamda yer osti va yer usti muhandislik kommunikatsiyalari, inshootlari va uskunalari o‘z ichiga oladi.

Qirg‘oq bo‘yining me‘moriy-landshaft komponentlariga quyidagilar kiradi:

- qirg‘oq bo‘yi akvatoriya elementlari bilan suv bo‘yidagi gidrotexnik inshootlar (to‘lqin qaytargichlar, orollar);
- tartibga solish chizig‘idan qurilmalarning qizil chizig‘igacha yoki qirg‘oq qiyaligigacha bo‘lgan qirg‘oq bo‘yi terrasalari;
- qirg‘oq bo‘yi terrasalarida va suvdagi inshootlar;
- qirg‘oq qiyaligi, agar u bo‘lsa, yoki shahar qurilmalarining yondoshgan fronti;

- injenerlik obodonchiligi va uskunalari;

Qirg'oq bo'ylarini yaratish murakkab jarayon bo'lib, ko'p mutaxassslarning qatnashuvini talab qiladi.

Shaharlarning arxitekturaviy qiyofasi va hajm-fazoviy kompozitsiyasiga qirg'oq va sohillarning ta'siri ham katta.

Insonlarning shaharlar hududidan oqib o'tgan ariq, anhor, kanal, daryo sohillari va qirg'oqlarni ko'rmasligi va ularga ahamiyat bermasligi amri mahol.

Shahar qurilishida sohil va qirg'oqlarning ikki xil turdagi arxitekturaviy yechimi ma'lum. Bular tekis qurilgan va fazoviy yechimga ega bo'lgan sohil va qirg'oqlardir. Bir tekisda qurilgan sohillar shahar markazidan, binolar yonlaridan o'tgan bo'lib, keng daryolar va kanallar uchun quriladi. Fazoviy yechimga ega bo'lgan sohil va qirg'oqlar katta bo'lmagan anhor va ariqlar uchun ishlatiladi.

Ular atrofdaagi turli hajmiy-fazoviy yechimdagi bino va inshootlarni, ochiq hovlilarning yaratilishi, sohil va qirg'oqlar me'moriy-kompozitsion yechimlarini boyitishga olib keladi.

Suv havzasi va obyektining qayerda joylashganligi, tuzilishi va uzunligiga qarab sohil va qirg'oqlarga yonma-yon ko'chalarni joylashtirish mumkin. Biroq, sohil va qirg'oqlarning yonlariga keng va serqatnov avtotransport yo'llarini joylashtirish bilan turar joy hududlarini toza havo va suv havzalari tomonidan esadigan shabadalardan to'sib qo'yib xatoga yo'l qo'yiladi.

Dam olib hordiq chiqarishga mo'ljallangan va unchalik keng bo'lmagan ko'chalar yoki yo'llarni sohil va qirg'oqlar bo'yicha joylashtirish maqsadga muvofiqdir. Shahar markazidagi sohil va qirg'oqlarni rivojlantirib, bulvar, skver va boshqa dam olish maskanlarini yaratish mumkin.

Uzun o'lchamli sohil va qirg'oqlarni bo'lish yo'li bilan, bir xildagi me'moriy-kompozitsion yechimlardan xoli bo'lish mumkin.

Me'moriy-kompozitsion yechimni chiroyli tugatish uchun sohil va qirg'oqlarning oxirida katta hajmga ega bo'lgan binolarni joylashtirish lozim. Ulaning bir-biriga kompozitsion nisbatli kontrast yoki nyuans tartibda bo'lishi mumkin. Sohil va qirg'oqlar bo'ylariga majburiy ravishda avtomagistrallar joylashgan taqdirda, turar joy binolari bilan avtomagistrallar oralig'ida ko'kalamlashtirilgan himoya chizig'i bo'lishi zarur. Sanitar-gigienik talablarni e'tiborga olish kerak, chunki sohil va qirg'oqlar birinchi navbatda shahar aholisining dam olishi va hordiq chiqarishiga xizmat qilishi lozim. Sohillar va qirg'oqlarning me'moriy-kompozitsion va hajmiy-fazoviy yechimlarini boyitish maqsadida zinapoyalar, panduslar, parapetlar, panjaralar, rotondalar va balyustradalardan foydalanish mumkin.

Suv havzasining asosiy landshaft arxitekturasini obyektining elementi tarzida qarab, uni asosiy va ikkilamchi zinapoya va panduslar, pog'onali sharsharalar bilan boyitib go'zal arxitekturaviy-kompozitsiya yaratish mumkin. Sohiller va qirg'oqlarning me'moriy kompozitsiyasini tizimli tarzida qarab, ulami zinapoyalar, panduslar o'rnatilgan hududlarga bo'lgan holda obodonlashtirish mumkin. Asosiy va ular yonidagi ikkilamchi zinapoyalar (panduslar bilan birgalikda), dam olish maydonchalari bilan bo'lingan holda, sohiller va qirg'oqlarda tashkillashtirilgan hajmiy-fazoviy kompozitsion yechimga ega bo'lgan maydonchalarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Asosiy zinapoyalar suv havzasiga perpendikulyar joylashgan bo'lishi va qirg'oqlardan chiqib qirg'oq oldi maydonlariga tutashishi mumkin. Asosiy zinapoyalarning kengligi chegaralanmaydi, ba'zi katta shaharlarda 45 metrgacha yetadi. Asosiy kirish joyi suv havzasi tomonidan shahar bilan tutashishi mumkin.

Zinapoyalar haykalchalar, guldona va boshqa mo'jaz arxitekturaviy shakllar bilan bezatilib, shahar me'moriy kompozitsiyasi bilan uyg'unlashib ketishi lozim.

Sohiller va qirg'oqlar nishab va tik holatda qurilishi mumkin, qurilish materiallari uchun g'isht, beton, temir-beton, tabiiy toshlar, sun'iy toshlar va boshqalar ishlatiladi.

Shahar va qishloqlar o'rtasidan kesib o'tgan suv havzalarining (ariqlar, anhorlar, kanallar va daryolar) kompozitsion yechimlari, shu shahar va qishloq me'moriv-landshaft ko'rinishini boyitibgina qolmay, odamlarning bo'sh vaqtlarini tabiiy landshaftga boy manzarali hududlarda madaniy hordiq chiqarishiga ham xizmat qiladi. [5]

II BOB.

SHAHAR MUHITINI TIZIMLI KOMPLEKS LOYIHALASH TAMOIYILLARI

2.1 Shahar muhiti fazosini tashkillashtirishda funksionallik ekologik va estetik talablar

Shahar va qishloqlarimizda aholi turarjoylarining me'moriy badiiy va estetik ko'rinishini shakllantirishda hamda atrof-muhit ekologiyasini muhofaza qilishda daraxt va butalarning roli nihoyatda kattadir. Ular me'moriy qimmatga ega bo'lgan binolar, inshootlar, yodgorliklarga soya berishi bilan bir qatorda, ochiq devorlar, to'siqlar, eski binolar, sanoat obyektlarining noestetik ko'rinishini bartaraf etishga ham xizmat qiladi. O'simliklarni atrof-muhit masshtabi va binolarning me'moriy yechimiga mos ravishda to'g'ri tanlash ularga yanada ko'rkam va go'zallik baxshida etadi. Daraxt va butalardan tashkil etilgan bog'-parklar hamda xiyobonla atrofimizdagi olamning o'ziga xos zaruriy tarkibiy qismi bo'lib, keskin kontinental, issiq quruq iqlimimiz sharoitida atrof-muhit tabiiyligini saqlash va uni sog'lomlashtirish vazifasini o'taydi. Yashil maydonlar havo harorati va namligini mo'tadillashtiradi, daraxt hamda butalar bilan qoplangan yashil maydonlarda havo harorati yilning issiq vaqtlarida atrof-muhit haroratiga nisbatan 7-10°C gacha salqinroq va havo namligi esa 20-30% ko'p bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa bizning issiq iqlimli sharoitimizda shaharlarda daraxtlarning bu xususiyatlari katta ahamiyatga egadir. Ignabargli va keng bargli daraxtzorlarning havodagi gaz almashinuvi jarayonidagi ahamiyati ham juda kattadir. Daraxt vabutalarning azot oksidi, oltingugurt, ftorli vodorod, kislotaga bug'i balansini ushlab turishda ham bevosita ahamiyat kasb etadi. Lekin gaz almashinuvi jarayoni hamma o'simliklarda har xil o'tadi. Ayniqsa kengbargli o'simliklarda bu jarayon ignabargli o'simliklarga qaraganda ancha jadal kechadi. Respublikamiz iqlim sharoitida aholiturarjoylari, ayniqsa yilning issiq davrlarida kuchli darajada changlanishi bilan ajralib turadi va bunda uning cho'l hududlarida esadigan garmsel va afg'on shamollarning atrof-muhitga salbiy ta'siri kattadir. Bunday sharoitda daraxt va butazorlarning chang ushlab qolish xususiyatidan foydalaniladi. Daraxtlar qanchalik zich joylashgan bo'lib, barg yuzasi katta bo'lsa, changni shuncha ko'p ushlab qoladi. Ayniqsa daraxtlarning barglari vegetatsiya davri boshida, changni ushlab qolish intensivligi kuchli bo'lib, vegetatsiya davri oxiriga qarab kamayib boradi. Tadqiqotlarga ko'ra ignabargli daraxtlar har yili o'rtacha gektariga 40 tonna changni ushlab qolsa, kengbargli daraxtlar 100 tonnagacha changni ushlab qoladi.

Atmosfera kuchli changlanishi kuzatiladigan hududlarda kengbargli daraxtzorlar va yashil maydonlar barpo qilish atmosfera nisbiy namligini ham oshiradi, nisbiy namlikni oshishi esa atmosferaga chang chiqishini kamaytiradi. Shu sababli yirik shaharlarda, sanoat markazlari yaqinida 500 metrgacha radiusda shahar atroflaridan yirik ignabargli va kengbargli daraxtzorlarni yashil maydonlar bilan birgalikda barpo qilish nisbiy namlikni oshirib, atmoferada chang hamda har xil aerozollar va gazlar miqdorining kamayishiga olib keladi. Daraxt va butazorlarning sanitar-gigiyenik xususiyati fitonsidlik xususiyati, ya'ni kuchli rivojlangan og'riqlarni keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlarni yo'q qiluvchi moddalarni chiqarishi bilan ham o'ziga xosdir. Masalan, terak barglari o'zidan ichburug1 kasalligini qo'zg'atuvchilarni yo'q qiluvchi moddalarni chiqaradi. Ignabargli daraxtlar esa fitonsid ishlab chiqarishda yuqori o'rinlarda turadi. 1 gektar archazor 1 sutkada 30 kg, qoraqarag'ay va qorag'ay 20 - 25 kg bakteriotsid moddalarni ajratib chiqaradi. Bunday miqdordagi fitonsidlar katta shaharlardagi barcha mikroblarni yo'q qilish uchun yetarli hisoblanadi. Manzarali daraxtlardan oq akatsiya, soxta kashtan, oddiy qayin, tatar zarangi, qayrag'och, tol, olma fitonsidlarning eng asosiy manbayidir. Daraxtlarning fitonsidlik xususiyati kurtaklash, gullash fazasida va issiq hamda quyosh faolligi ta'sirida yanada kuchayadi. Shuningdek, ignabargli daraxtlarning atmosferani biologik tozalashdagi yashil filtr vazifasi hamjuda kattadir. Masalan, rux, kobalt, xrom, mis va molibden kabi kimyoviy mikroelementlarning miqdori havo yaxshi aylanmaydigan, aholi zich yashaydigan joylarda, transport va har xil chiqindilar ta'sirida atmosfera havosida ko'payishi kuzatiladi. Bu elementlar miqdorining ruxsat etilgan me'yoridan ortib ketishi atrof-muhitning ifloslantirishga olib keladi. Bu esa aholining turli kasalliklarga chalinishiga sabab bo'ladi. Bunday hududlarda daraxtzorlarni barpo qilish zararli mikroelementlar miqdorini kamaytirishga olib keladi, ayniqsa atmosferadagi temir va marganes miqdorini kamaytirishdasoxta kashtan hamda maydabargli jo'ka (lipa), temir va mishyak miqdorini kamaytirda esa terak daraxti, mishyak va oltingugurtni tozalashda zarang daraxtining samaradorligi yuqoridir. Umuman olganda, igna va kengbargli daraxtlar majmuasi, ulardan tuzilgan yashil kompozitsiyalar atmosfera havosini tozalashning eng yaxshi vositasidir. Daraxt va butalarni ayniqsa igna hamda kengbargli daraxtlarni birgalikda ekish, ulardan turli landshaft kompozitsiyalarni yaratish bizning iqlim mintaqamizda yaxshi samara beradi, chunki ko'pincha ignabargli daraxtlarning quruq issiq davrlarda issiqdan zararlanishi kuzatiladi, chunki bu daraxtlar havoning nisbiy namligiga talabchan hisoblanadi. Havo namligini saqlashda kengbargli daraxtlarning roli kattadir. Bu esa ularning bir-biridagi kamchiliklarni to'ldirib, atrof-muhit musaffoligini ta'minlaydi.

Zamonaviy urbanizatsiyalashuv faoliyatining atrof-muhitga kuchli ta'sir etishi natijasida aholining ruhiy holati keskinlashadi, jismoniy kuchlanishi esa og'irlashadi, bunday sharoitda daraxtzor va ko'kalamzorlarning inson salomatligi, ayniqsa yosh bolalar va qariyalar sog'ligi uchun ahamiyati kattadir. Katta shaharlarning markazida yirik bog'-parklarni tashkil etish ekologik nuqtayi nazardan eng lozim bo'lgan ishlardan hisoblanadi.

Shu sababli shahar va qishloqlardagi jamoat binolarini, ayniqsa o'quv muassasalari hamda ijtimoiy binolarni loyihalashda yashil maydonlarda daraxt va butalarning turli xil majmualarni shakllantirish va ko'kalamzorlar tizimini to'g'ri tashkil etish atrof-muhitni sog'lomlashtirish va ekologik nuqtayi nazardan katta ahamiyatga egadir.

Samarqand viloyatining deyarli barcha tumanlari markazlaridasobiq ittifoq davrida qurilgan kam va o'rta qavatli ko'p seksiyaliturar joylar mavjud. Ular odatda, aholi punkti ichidagi ko'chalararchetlari va atroflari bo'ylab qurilgan turar joylar me'moriymaskanlari va guruhlarini tashkil qiladi. Yo'l chetidagi trotuarlarbo'ylab yursangiz ana shunday 2 va 4 qavatli ko'p seksiyali uylarniko'rasiz. Bu uylar atrofiaridagi joylarni ushbu uylarning birinchiqavatida yashovchilar o'zlariga an'anaviy ogorod, mevali vokixo'jalik bog'i qilishib olganlar. Har bir xonadon tashqi yonidagibunday "bog"lar bir-biriga qo'shilib tartibsiz ko'kalamzormanzarani vujudga keltirgan. Ayrim holatlarda daraxtlar o'sib yuqori qavatlarning derezalarini ham to'sib qo'yilganiigi va xonalarga keraklicha yorug'lik tushmasligi sababli kunduz kunlarida ham elektr energiyasidan foydalanishga to'g'ri keladi. Xonadonxonalarini shamollatishning ham imkoni cheklangan. Bunday qo'lbola "bog"larda estetik tamoyillar va manzaraviy landshaft kompozitsiyalari mavjud emas.

Shunday ekan bunday turar joylar qoshida o'zaro yashil to'siqlar-izgorodlar bilan to'silgan xususiy ogorodlar "bog"chalar emas, balki soyali manzaraviy daraxtlar va keng yashil o'tloqlar bilan shakllantirilgan va ijtimoiy dam olishga mo'jallangan yashil maskanlar tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday turar joylar qoshida, ayniqsa uylarning seksiyalarga kirish qismlarida mevali daraxtlar ekish o'zini oqlamagan tajribadir. Mevali daraxtlarni uylarning orqasiga aynisa, ularning janubga yoki ufqniug quyoshlitomonlariga qaragan qismlariga eksa bo'ladi. Agar bunday uylarda balkonlar mavjud bo'lsa va ular ufqning sharq va g'arb tomonlariga qaragan bo'lsa, ularni chirmashib o'suvchi gullovchi lianlar yoki uzum soluvchi an'anaviy toklar bilan ko'kalamzorlashtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

Sobiq ittifoq davrida yoki yangi qurilgan qishloq mahallalarining landshafti va ko'kalamzorlarini loyihalashda barcha ko'chalar, piyodalar,

trotuarlar, xiyobonlar va ichki proyezdlarga soya beruvchi manzaraviy daraxlar qator ekilsa maqsadga muvofiqdir.

Turar joylar guruhlar va massivlaridagi jamoat hovlilariga ekilgan ko'kalamzorlar ulardan ijtimoiy tarzda foydalanish imkonini berishi zarur. Shuningdek, ulardagi ko'kalamzorlarda aholining barcha yoshdagi qatlamlari uchun xususiy va jamoat bo'lib damolishlariga (kattalarning daraxt soyasida tinch dam olishlari, bolalarning ochiq maydonlardagi o'yinlari, o'smirlarning sport bilan shug'ullanishlari uchun) sharoit yaratilishi zarur.

Turar joylar guruhidagi bog'far va ulardagi maydonlarning ko'kamlari quyoshga nisbatan ochiq va yopiq yashil maydonlari tashkil etishi zarur. Bino tarzlar bo'ylab cho'zilgan trotuarlar va xiyobonlar agar ular janub, g'arb va ufqning quyoshli tomonlariga qaragan bo'lsa, quyosh nurini to'sish maqsadida baland soyapar daraxtlar ekilishi zarur. Gulzorlar va maysazorlar yer yopar o'simliklar ekilgan maydonlar bunday hovlilarning ichki va markaziy qismlariga joylashirilsa maqsadga muvofiqdir. Dam olish maydonlarining atroflariga chetlari go'zal gullovchi butalar bilan aylanitirilgan manzaraviy daraxtlardan tuzilgan tabiiyguruhlar kompozitsiyalari shakllantirilishi zarur.

Turar joylarlar qanday aholi punktining ommaviy turarjoylarining birlamchi bo'lagi hisoblanib bu yerda aholining maishiy, madaniy-ma'rifiy va rekreatsion ehtiyojlari qondiriladi. Turar joylar hududini me'moriy-landshaft va rekreatsion tashkil etishda sifatga erishish uchun turar joylarni landschaft-rekratsion tashkil etish bosqichlarining quyidagi ketma-ketligiga rioya qilinishi zarur:

* loyihadan oldingi bosqichda, qurilishni tashkil etish va aholining ijtimoiy-demografik tuzilmasini (bolalar, yoshlar, kattalar va qariyalar) tarkibi va nisbatini tahlil qilish, aholining zichligi, dam olish turlari va shakllariga bo'lgan ehtiyojlarini, tabiiy sharoitlar xususiyatini, loyihalanaotgan hududning sanitarivagigienik holati va ekologiyasini hisobga olish;

* loyihalash bosqichida dam olish turlari va mezonlari bo'yicha hududni landschaft-rekreatsion zonalash va landschaft elementlaridam olish maydonchalari, suv qurilmalari, o'simliklar va tashqi muhitni obodonlashtirish shakllarini me'moriy-rejali tashkil etish masalalari yechilishi zarur. Ko'kamlashtirishda o'simliklarni tanlash va ekish ochiq maydonlar muhitini shakllantirishning funksional, sanitariya-gigienik va estetik omillarini va landschaft tashkil etishning an'anaviy uslublaridan foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda bajarilishi kerak.

Masalan, shaxsiy hovlilardagi bog' hududida dam olish uchun,xonadon ayvonchalari yoki birlamchi uy oldi maydonlarida dam olish zonasi tashkil etiladi (odatda, bu yerda oila a'zolari va kichik yoshdagi

bolalar kattalaming nazorati ostida dam oladi) Maktab yoshidagi bolalar va qariyalaming dam olishi uy oldidagi yarim jamoatchilik maydonlarida, o'smirlar va kattalammg dam olishi esa turar joy jamoatchilik maydonida tashkil etiyadi, Yoshlar o'zlarining dam olish va bo'sh vaqtini turar joylardan tashqarida (shaharcha, bog` yoki parklarida) o'tkazishni afzal ko'radi.

Landshaft-rekreatsion muhitlarning barcha sanab o'tilgan elementlari turar joy qurilishi-landshaft muhiti yaxlitligini shakllantirishda, dam olish, muloqot qilish va bo'sh vaqtini o'tkazish, muhitning psixologik va fiziologik qulayligini ta'minlashda o'zaro bog'lovchi ahamiyatga ega. Landshaftni shakllantirishda o'simliklarni to'g'ri tanlash va yashil kompozitsiyalar tashkil etish yetakchi ahamiyatga ega b'oladi.

Turar joylar muhitidagi aholi guruhlarining dam olishini ta'minlashda kichik yoshdagi (0-4 yosh) va maktabgacha yoshdagi bolalar (5-7 yosh), kichik yoshdagi (8-10 yosh) va o'rta yoshdagi o'quvchilar (11-14 yosh), o'qiyotgan (15-22 yosh) va ishlayotgan yoshlar (23-35 yosh), mehnat qilish qobiliyatiga ega aholi (36-60 yosh) va nafaqaxo'rlarning (60 va undan ortiq yosh) dam olish hududlarini funksional zonalariga ajratishni ko'zda tutish zarur, chunki aholining har bir guruhi o'z vaqt byudjetiga ega bo'lib, turar joy tuzulmasi hududida dam olishning tarkibi va mazmuniga o'ziga xos talablar qo'yadi.

Ko'p qavatli turar joy guruhlar hududida aholi dam olishi uchun mo'ljallangan maydonchalardan tashqari har xil maqsadlarga yo'naltirilgan xo'jalik maydonchalarini ham loyihalash zarur (kirlami, quritish, gilam qoqish, axlat yig'ish qurilmalari). 1-jadval.

1-jadval. Turar joylar hududidagi har xil maqsadlarga
mo'ljallangan maydonchalar me'yorlari

T'r	Maydonchalarning turlari	Me'yorlar, kv.m/kishi
1.	Bolalar maydonchalari	0,55-0,7.
2.	Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun	0,2
3.	Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun	0,35-0,5
4.	Sport maydonchalari	1,00
5.	Dam olish maydonlari	0,2
6.	Xo'jalik maydonlari	1,00
7.	Yo'laklar	10%
8.	Ko'kalamlashtirilgan maydonlar	30%

Turar joy qurilishida madaniy-maishiy va savdo muassasalari, maktablar, bog'chalar va bekatlarga eng qisqa va qulay boorish yo'li - transport tarmog'i ham o'rin egallashi lozim. Turar joy tashqi muhiti

qulayligining asosiy sharti hududga soya tushishi va havo almashish tartibini hisobga olgan holda landshaft elementlarini fazoviy tashkil etish va quyosh harakatini e`tiborga olish hisoblanadi, Mahalliy iqlim sharoitida ochiq va yopiq soya muhitlarining to`g`ri nisbati hisobga olinishi lozim (daraxtlar, soyabonlar, pergolalar va boshqalar). Yashash hududlariga o`simliklarni shunday joylashtirish kerakki, ko`kalamzor hududlarda havo almashishish imkoniyati bo`sin.

Turar joy hududlarini tuman markazi yo`llaridan ko`kalamlashtirish va katta ko`chalardan quyuq daraxtlar va butalar ekib ajratish lozim. Axlal yig`iladigan xo`jalik maydonchalari atrofmuhitdan ajratilishi va butun kun davomida soyada joylashishi lozim. Hozirgi vaqtda ayrim xorijiy mamlakatlarda axlat yig`iladigan xo`jalik maydonchalari degan tushuncha yo`q bo`lib bormoqda, chunki yer ostida joylashtirilgan mahsus axlat konteynerlari ustida zamonaviy axlat qutilari o`rnatilib, maishiy turmush axlatlari ularga plyonkali xaltalarga solib tashlanadi.

Ba`zi hollarda maktabgacha va kichik yoshdagi, ya`ni 9-13 yoshgacha maktab o`quvchilari uchun umumiy kompleks maydonchalar qo`llash mutnkin. Bunday maydonchalarning o`lchamlari 350-400 m bo`ladi (2-jadval).

2-jadval. Bolalar kompleks maydonchalarining o`lchamiari

Bolalar yoshiga ko`ra Guruhi	Ming kishigamaydonlar soni	Maydonlarning oMchami, m
Bog`cha va maktabgacha yoshdagi-7 yosh.	2	150-200
Kichik maktab yoshidagi 7 dan - 13 yosh	3	200-250

Kichik yoshdagi maktab o`quvchilari maydonlarini va yuqorida aytib o`tilgan bog`cha yoshidagi bolalar maydonchalarini, birlashtirish tavsiya etilmaydi. Bog`cha yoshidagi bolalar maydonchasini kattalar dam olish maydoni bilan birlashtirish maqsadga muvofiq. 1,5-2,5 ming kishilik alohida turar joylar guruhlarida 22x25 m o`lchamli kompleks sport maydonlari loyihalaniishi mumkin (3-jadval). Bularga maktab sport maydonlari kirmaydi. Sport maydonlari atrofidagi turar joy binolari derazalariga 25 m dan yaqin joylashmasligi kerak. Sport maydonlari atrofini, professional tarzda, talab va me`yorlarga javob bera oladigan qilib ko`kalamzorlashtirish kerak.

3-jadval. Turar joylar hududi sport maydonchalarining turlari va o'lcamlari

Sport maydonchalarining Turlari	Maydonlar o'lcamlari		1000 kishilik turar joy guruhlar uchun maydonlar soni		
	umumiy	o'yin maydoni	0,5-6,5	3,5-5,5	1,5-3,5
Basketbol maydoni	30x80	26x14	2-3	-	-
Voleybol maydoni	25x14	9x18	3-4	2-3	2-4
Tennis maydoni	40x20	24x11	1-2	1	-
Stol o'yinlari Uchun	4x8	-	3	2	2
Gimnastika o'yinlari uchun	600m2	-	1	1	-

[5]

2.2. Muhit obyektlarini ko'kalamzorlashtirishda o'simliklar va kichik me'moriy formalar kompozitsiya vositalarisi fatida.

Shahar va qishloq aholi punktlarining ko'kalamzorlar tizimi foydalanishi va ularning qaysi maqsadlarga mo'ljallanganiga qarab 3 yirik guruhga bo'linadi: umumiy foydalanishga mo'ljallangan, foydalanishi cheklangan va maxsus maqsadlarga mo'ljallangan ko'kalamzorlar.

Umumiy foydalanishga mo'ljallangan ko'kalamzorlarga umumshahar va tuman markazlarining parklari, qishloq bog'lari, xiyo-bonlar, skverlar, bulvarlar, shahar maydonlari hamda ko'chalarining ko'kalamzor hududlari va piyodalar ko'chalaridagi ko'kalamzorlar kiradi.

Foydalanishi cheklangan ko'kalamzorlarga turarjoylar hududlari, sanoat va ishlab chiqarish komplekslarida joylashgan ko'kalamzor hududlar kiradi. Bularga qishloq turarjoy kvartallari va turarjoy oldi uchastkalari, maktablar, bolalar bog'chalari, shifoxonalar, kollejlari, sport komplekslari, sog'lomlashtirish muassasalari hamda korxonalar va jamoat tashkilotlari hududlaridagi ko'kalamzorlar kiradi.

Maxsus maqsadlarga mo'ljallangan ko'kalamzorlarga esa ko'cha va transport magistrallari bo'ylab ekilgan ko'kamlar, sanitariyahimoya va suv havzalarini muhofaza qilish zonalari, stadionlar, o'rmon xo'jaliklari, qabristonlar, gul va ko'chatlar yetishtiruvchi xo'jaliklarning ko'kamlari kiradi. Aytib o'tilgan ko'kalamzorlar shahar va qishloqlar hududida muayyan bir tartibda joylashib, zamonaviy shahar va qishloq ko'kalamzorlarning yaxlit tizimini tashkil qiladi.

Ko'kalamzorlar tizimining boshlang'ich elementi sifatida qishloq kvartallaridagi mavjud turarjoy guruhlarining hovli bog'larini yoki mahallalar markazlari qoshidagi bog'ni ko'rsatish mumkin.

Agar yana ham ichkaribroq kirib borilsa, xususiy uy-joylarning hovli bog'larini eng boshlang'ich ko'kalamzor element tarzida ko'rsatishmumkin.

Qishloq ko'kalamzorlar tizimining eng yirik zvenosi bu, albatta, umumiy qishloq markaziy parki va qishloq sport parkidir. Qishloq ko'kalamzorlari tizimining elementlariga yuqoridagilardan tashqari yana tuman markazi shaharchasining maydonlari, xiyobonlar, skverlar, bulvarlar, ko'kalamzor piyoda yo'llar va sohillar bo'ylab joylashgan bog'lar ham kiradi.

Bu ko'kalamzor elementlarning bo'lish-boimasligi shaharning katta-kichikligi va strukturaviy tuzilishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Ko'kalamzorlar tizimining hajmiy tuzilishi va tashqi ko'rinishiga qarab ularni shartli ravishda ochiq hamda yopiq yashil ko'kalamzor muhitlarga bo'lish mumkin. Ochiq yashil ko'kalamzor muhitlarga manzaraviy parterlar, gulzorlar, maysazorlar va ochiq xiyobonlar, suv havzalari kirs, yopiq yashil muhitga yopiq xiyobonlar, daraxt va baland butalardan tuzilgan yashil gurulilar, massivlar, o'rmonzorlar kiradi. Yopiq yashil ko'kalamzor muhit – bu daraxtzorlar ichidagi maysazorlar, yo'laklar, xiyobonlardan va, asosan, soya hamda salqin muhitlardan tashkil topadi. Bunday ko'kalamzor muhitda osmon deyarli ko'rinmaydi, hamma joy soya-salqin bo'ladi. Ochiq yashil muhit esa buning aksi, unda soya bo'lmaydi, muhitga quyosh nuri tushadi, muhitdagi barcha landshaft elementlari va osmon ko'rinadi.

Yoz paytida kunduz kuni ochiq yashil muhitdagi havoning harorati yopiq yashil muhit havosiga nisbatan issiq bo'ladi.

Ma'lumki, sovuq havo vazni issiq havoga ko'ra yengildir. Buning natijasida yopiq yashil muhitdagi nam salqin havo ochiq muhitdagi yengil issiq havo tomon oqadi va uning joyini egallashga harakat qiladi. Havoning bunday tabiiy oqimi, ya'ni havo siljishi oqibatida yopiq va ochiq yashil muhitlar chegarasida yengilgina shabboda yuzaga keladi.

Bu tabiiy voqealarni biz «shabboda samarasi» deb atadik. Kechasi esa buning aksi, ya'ni ochiq yashil muhit quyosh botishi bilan yopiq yashil muhitga nisbatan tez sovub ketadi va shabboda endi teskari tomonga – yopiq yashil muhit tomon harakatlanadi. Ochiq va yopiq yashil muhitlar orasida sodir o'ladigan bunday ijobiy havo harakatining qonuniyatidan ko'kalamzorlarni loyihalashda O'zbekistonning issiq va quruq iqlimi sharoitida samarali foydalanishni, buning uchun esa shahar ko'kalamzorlar tizimida tashkil etiladigan ochiq va yopiq yashil ko'kalamzor muhitlar maydonining o'zaro nisbatini 1:1 tarzda olishni tavsiya qilamiz.

Qishloq aholi punktlarida ko'kalamzorlar tizimining joylashishi turlicha usullarda bo'lishi mumkin: a) markazlashgan joylashuv; b) qishloq atrofi bo'ylab joylashuv va d) teng taqsimlanib joylashuv. Ushbu usullar ichida ko'kalamzorlar tizimining aholi punkti hududida teng taqsimlanib joylashuvi eng samarali usuldir.

Ko'kalamlarni me'yorlash-bu aholi punktlarida odam boshiga to'g'ri keladigan yashil maydonni kv. metrda me'yorlash. Yashil maydon deganda o'simliklar, daraxtlar, butalar, gulzorlar, maysazorlar yoki yeryopar o'simliklar ekilgan maydon tushuniladi.

Bunday maydonlarni me'yorlash birinchi navbatda aholi punktining katta-kichikligi va tabiiy-iqlim sharoitlariga bog'liqdir. Agar qishloq shaharchasi yirik yoki katta bo'lsa, odam boshiga umumiy foydalaniluvchi ko'kalamlar egallagan yashil maydonlar ham ko'proq, shaharcha yoki qishloq kichik bo'lsa, bunday ko'kalamlar maydoni ham kamroq bo'ladi.

Shaharsozlik loyihalash me'yorlarida foydalanishi cheklangan va maxsus maqsadlarga mo'ljallangan ko'kalamzorlar maydoni me'yorlanmaydi, faqat umumiy foydalanuvchi ko'kalamzorlar hududigina me'yorlashtiriladi, deb ko'rsatilgan.

Umumiy foydalanuvchi ko'kalamlar o'z navbatida quyidagi guruhlarga bo'lingan:

- a) umumshahar ko'kalamlari;
- b) turarjoy tumanlari ko'kalamlari;
- d) qishloq aholi punktlari ko'kalamlari.

Har bir ko'kalamlar guruhi uchun alohida yashil maydonlar me'yorlangan. Masalan, qishloq aholi punktlari ko'kalamlari bir kishiga maksimal 12 m.kv. deb belgilangan.

Bu me'yorni quyidagi holatlarni e'tiborga olgan holda 20% u yoki bu tomonga o'zgartirish mumkinligi ko'rsatilgan:

a) iqlimiy sharoitlar (O'zbekistonning janubiy viloyat va tumanlarida yashil maydonlar me'yori shimoliy viloyat tumanlariga qaraganda ko'proq bo'lishi kerak);

b) yashash uchun noqulay sharoitlar (kuchli shamollar, changto'zonlar, qumlar, qor ko'chkilari mavjud aholi punktlarida ko'kalamzor maydonlar miqdori ko'p bo'lishi zarur);

d) ishlab chiqarish va sanoat korxonalarining ko'pligi (bunday korxonalarning ko'pligi ham bir kishiga to'g'ri keladigan yashil maydonlar miqdorini oshiradi);

e) shaharsozlik rejaviy sharoitlari (masalan, qishloqda qurish uchun nobop maydonlar mavjud bo'lsa, ular yashil ko'kalamzorlarga aylantiriladi va bundan yashil maydonlar miqdori oshadi). Shahar va qishloqlarning sifatli

va zarur miqdordagi ko'kalamlashtirilish darajasi - bu aholining yashash madaniyatining oshganligi belgisidir.

Qaysi aholi punkti yaxshi va sifatli ko'kalamlashtirilgan hamda obodonlashtirilgan bo'lsa, o'sha yerga aholining qo'chib kelishi va muhim joylashishi kuzatilmoqda.

O'zbekiston tabiatan kam o'rmonzorli va serquyosh respublika, shuning uchun uning iqlimi hamda tabiati inson tomonidanyaratilgan ko'kalamzorlar va o'simliklarga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Bu o'lkada soya va suv o'ta dolzarb masaladir. Shuning uchun ham shahar va qishloqlarimizda kam suv sarflab ko'p soyali va salqin maskanlarga ega bo'lish juda muhim masaladir. Bunga erishishning eng oson va tezkor yo'li – bu aholi punktlarini samarali ko'kalamzorlashtirishdir.

Buning uchun esa aholi yashash joylarini landshaft tashkillashtirishning quyida keltirilgan asosiy tamoyillari va vazifalariga rioya qilish kerak.

Shaharsozlik normalarida O'zbekiston shahar va qishloqlarida soyali yashil maskanlarni yaratish maqsadida 1 gektar hududga 350-400 tagacha daraxt ekish tavsiya qilingan. Bu miqdor mo'tadil iqlimli zonalaridagi shaharlarga nisbatan deyarli 2 marta ko'pdir. Daraxtlar sutka davomida fotosintez jarayoni natijasida o'zidan havoga 200 ta odamning nafas olishiga zarur miqdordagi kislorodni chiqarish va, ayni paytda, o'shancha odamning bir soatda nafas olishi jarayonida o'pkasidan chiqaradigan 8 kg karbonat angidrid gazlarni yutish imkoniyatiga ega.

Agar 1 gektarni 200 odam soniga bo'lsak, har bir kishiga 50 kv.m. ko'kalamzor yashil maydon to'g'ri keladi. Bu miqdor inson hayoti uchun zarur bo'lgan havodagi kislorod miqdorini saqlab turish imkonini beradi. Tabiiyki, bu ko'rsatkichga ko'kalamzorlarning barcha turdagi guruhleri (umumiy foydalanuvchi, foydalanilishi cheklangan va maxsus maqsadlarga mo'ljallangan) ko'kalamzorlar ham kiradi. Kelajakda bu miqdorning ortib borishi kuzatilmoqda.

Masalan, umumiy foydalanuvchi ko'kalamzorlar miqdorini yaqin kelajakda o'rta hisobda 1 kishiga 24-26 kv.m ga, barcha ko'kalamzorlar miqdorini esa 50-60 kv. m ga yetkazish masalasi qo'yilgan. Hozircha buko'rsatkichlar mos ravishda 14-16 va 40-45 kv.m ni tashkil qilmoqda.

Bugungi kundagi shaharsozlik me'yorlariga ko'ra har bir aholi punkti hududining kamida 60% barcha turdagi foydalaniluvchi ko'kalamzorlar tizimi bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Hozircha bu ko'rsatkich, afsuski, respublikamizning ko'pchilik aholi punktlarida 50 foizni ham tashkil etmaydi.

Mo'jaz me'moriy shakllar bilan bog'liq landshaft qurilmalari «Landshaft arxitekturasining mo'jaz me'moriy shakllar bilan bog'liq

qurilmalari»ga bog‘-parklarga kirish darvozalari, ularni chegaralovchi to‘siq va panjaralar, ko‘shklar (kioskalar), voish, trelyaj, pergola va shpalerlar, galereya va shiypunchalar, pavilyonlar, rotondalar, park mebellari (o‘rindiqlar, kursilar) dekorativ devorlar kiradi.

Mo‘jaz me‘moriy qo‘yiladigan asosiy talablardan biri, ushbu hududning yashil o‘simliklari, relyef va landshaft kompozitsiyalarining shakllari bilan uyg‘unligiga erishishdir. Ular atrof-muhitga nomutanosiblikni olib kirishi kerak emas, aksincha arxitekturaviylandshaft kompozitsiyasi stilistikasiga to‘la javob berishi kerak.

Mo‘jaz me‘moriy shakllar ixtiyoriy arxitekturaviy shakllarni darvozalar kirish qismidan, pavilyon (ko‘shk), ratonda, galereya, supalar (besedka), bolyustradalar, faworalar yoki ko‘prikchalardan tortib to vazalar, fonarlar, panjarali to‘siqlar, o‘rindiqlar va boshqa ko‘rinishlarda eks etirishi mumkin. To‘siqlar va darvozalar. Umumiy foydalanishga moijallangan ko‘kalamzorlar, hududlar va maydonlarini atrof-muhitdan ajratish maqsadida ularning atrofiga to‘siqlar o‘rnatish odat tusiga kirgan.

Bundan tashqari barcha oliy va o‘rta maxsus, ta‘lim-tarbiya muassasalar, maktablar, bog‘chalar, kollej va litseylar, shifoxonalar, sanatoriyalar, ishlab chiqarish, sanoat va ma‘muriyat binolari, sport inshootlari va maydonlari, omborxonalar va saqlash zonaları ham to‘siqlar bilan ajratiladi. Shunday ekan, ushbu masalaga ham jiddiy e‘tibor qaratishimiz zarur boiadi.

Ayniqsa, bog‘-parklar vanufuzli jamoat binolari hududlarining to‘siqlari va ularning me‘moriy dizayn yechimlariga alohida e‘tibor berishimiz zarur. O‘tmishda ham bunday qurilmalarga katta e‘tibor berilgan.

Bizgacha saqlangan bog‘-parklarning to‘siqlari va darvozalari bunga yorqin misoldir.

To‘siqlarni balandligiga qarab uch turga: baland to‘siqlar (3-5 m), o‘rta bo‘yli (1-1,2 m - odam belbogi balandligida) va past to‘siqlarga (0,3-0,5 m) ajratish mumkin.

Baland to‘siqlar yirik parklar va hududi katta bogiari, masalan, katta ko‘rgazma bogiari, botanika bogiari, hayvonot bogiari, dendroparklar, stadionlar va shunga o‘xshash joylar hududini to‘sisish uchun qo‘llansa, o‘rta bo‘yli to‘siqlar skverlar, bulvarlar, sohillar va ayrim hollarda katta parklar ichidagi alohida ajratilgan joylar, shahar ko‘chalari va yoilar chetlarini ajratish uchun o‘matiladi.

Past to‘siqlar esa chiroyli gulzorlar va ko‘kalamzorlar hududlarini to‘sisish uchun ishlatiladi. Baland va o‘rta bo‘yli to‘siqlar, odatda, yuqori sifatli hamda uzoq saqlanadigan materiallardan ishlanadi. Ularning kursi qismi va tayanch ustunlari uchun granit, bazalt, peschanik va boshqa mustahkam tog‘

jinslaridan, panjaralari hamda darvozalari uchun esa metall, quyma chugun yoki yelimlanadigan materiallar ishlatiladi.

Panjaralarning omamentlari, odatda, quyma chugundan ishlanib boltlar bilan mustahkamlanadi.

Bog`-parklar va yirik jamoat binolari egallagan hududlarning darvozalari o`ta tantanavor hajmlar va shakllarda boiishligi talab etiladi. Ular uchun sifatli va mustahkam qurilmalar hamda pardoz materiallari ishlatiladi. Tunda bu darvozalar, odatda qulflab qo`yiladi. Bunday darvoza uchun metall vatoshlar, shaklli beton yoki sopol bloklar qoilanadi.

Pastkam to`siqlar uchun bobolarimiz o`tmishda pishiq g`ishtlardan foydalangan, «dandona» deb ataluvchi to`siqlar gulzorlar va yoiaklar chetlarini bezagan.

Ko`shklar (kioskalar) - aholi ko`p yigiladigan joylarda joylashtiriladi. Ularning dizayni landshaft stiliga mos kelishi, landshaft ko`mpozitsiyalarining ko`rinishiga esa atrof-muhitga monand boiib, unga bo`ysunishi kerak. Ularning arxitekturaviy dizayni zamonaviy an`analarga yoki antiqa dizayn stiliga yarasha boiishi, landshaft sharoitiga munosib ranglardan va yengil konstruksiyalardan bajarilishi lozim. Ko`shkto`rt ustunli, tomi qubbali, asosan, yog`ochdan qurilgan yengil inshoot, evropacha nomi kioskdir.

Kelib chiqish jihatidan oddiy o'tovga borib taqaladi. O`rta asrlar Sharq me`morchiligida keng tarqalgan. Dastlab qadimgiko`chmanchi xalqlaming ko`chib yurishiga qoiay uy (ko`chik) sifatida paydo boigan. Arava ustiga o`rnatilgan ko`shklardan ham foydalanilgan. Keyinchalik ko`shklarbadavlat kishilar, hukmdorlar uchun bezakdor qilib bogiar ichida qurilgan.

Tarixiy manbalarda ko`shk namunalari haqida m`alumotlar saqlangan. Vizantiya elchisi Zemarx 568-yilda 0 `rta Osiyo ko`chmanchilarining hoqoni o`rdasida to`rt tovu haykalini ko`tarib turgan ko`shkni ko`rgani haqida yozgan. 738-yilda Termiz yaqinida arab sarkardasiga oltin va kumush bilan bezatilgan ikkita ko`shk taqdim etilgan. X-XV asrlarda ko`shklar arxitekturasi rivojlanib, aksari bog` ichkarisidagi sinchkori yengil qurilmalar tarzida ustunli, ayvonli va boloxonali, zeb-u ziynatli, hashamatli, ko`rkam imoratlar tarzida ko`zga tashlangan. Amir Temur bunyod etgan bogiar ichidagi ko`shklar o`zlarining shakl-shamoyili va bezaklari bilan arxitektura va bog`-park qurilishi taraqqiyotida yangi davr ochgan. Samarqand atrofida bunyod etilgan (XIV-XVI asrlar) bog`-rogiar ichidagi ko`shklar haqida tarixiy manbalar aniq maiumot beradi. Samarqanddagi Ko`ksaroy, Shahrisabzdagi Oqsaroyini Bobur ko`shklar qatoriga kiritgan. Ko`shk me`morligi Turkiya, Xitoy, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda keng tadbiiq etilgan. Yevropaga ham Sharq orqali («kiosk» shaklida) kirib kelgan.

Haykaltaroshlik asarlari san'at asari bo'lib, xuddi favvoralar, ko'kalamzorlashtirilgan joylarni bezatadi, ular muhitiga xilma-xillik kiritadi va boyitadi. Ular yirik va kichik bo'lishi mumkin va kayfiyatga yaxshi ta'sir etishi, odamlarda qiziqish uyg'otib, ularga chiroyli his-tuyg'ularni ato eta oladigan bo'lishi kerak.

Haykaltaroshlik asarlari - antik, klassik, turli xil tematik va sahna asarlarini aks ettirishi, hattoki abstrakt holatlarda bo'lishi ham muhim. Abstrakt shakllardagi haykallarni dekorativ-amaliy san'at yoki erkin ijodiy yo'nalishga bog'lash mumkin. Panjara devor (ixotalar) - perimetr bo'ylab haqiqatda zarur bo'lgan holatlarda qo'llaniladi, biroq ular yuqori badiiy qadrqimmatga ega bo'lishi kerak. Panjara devorlarni ishlaganda landshaftni mo'jaz me'moriy va dekorativ shakllar bilan haddan tashqari bezatilishiga harakat qilish shart emas, biroq katta ma'lumot yuklatilgan obyektlar bundan mustasno albatta, misol uchun tematik bog' va parklar.

Dekorativ devorlar.

Dekorativ devorlar landshaft arxitekturasining bog'-park san'atida keng qo'llanilib kelgan. Shpalerlar ham trelyajlar va pergolalar kabi tik ko'kalamzorlashtirishda qo'llanib, tirmashib o'suvchi o'simliklar uchuntayanch qurilma - sinch vazifasini bajaradi.

Ular alohida turishi, yo'laklar bo'ylab qo'yilishi, patiolar, ya'ni hovli bogiarini, terrasani va hatto to'siqlarni ham shakllantirishi mumkin. Shpalerlar dam oluvchilarni jazirama quyosh va shamoldan himoya qiladi, soya hosil qiladi. Ularning balandligi, odatda, 2 m dan oshmaydi va yog'och reykalardan (qirqimi 25x25 mm) ishlanadi. Reykalar birbiriga xos shaklda biriktiriladi va tomonlari 10 sm kvadrat yoki romblar hosil qiladi. Agar bog'da suv havzasi boisa, uning yoniga yengil bog' qurilmasi - rotonda, ya'ni aylana tarhdagi ustunlar o'rnatilib, usti gumbaz bilan yopilgan, yonlari qisman yopiq, kursi ustiga o'ratilgan suhbatgoh ishlangani ma'qul. Rotondalar, odatda, katta bo'lmay, diametri 2,2-2,5 m umumiy balandligi 2,5-3 m, kursisining balandligi esa 35-40 sm boiadi.

Kursi (o'rindiqlar) – bog'-park maydoni, skverlar, xiyobonlar, maydonlar va boshqa obyektlarning zarur elementi. Ular alohida, guruhlar bo'lib, aylana bo'ylab yoki daraxt atrofida turishi mumkin. Kursilar odatiy geometrik shakllardan to erkin shakllargacha bo'lgan kutilmagan ko'rinishlarga ega bo'ladi.

2.3. Ko'p qavatli turar joylar hovlilari landshaft muhitida yoritish.

Ko'chalarni yoritish, shahar obodonchiligi muhim tadbirlaridan biri hisoblanadi. Ravshan sun'iy yoritish, yorug'lik reklamalari, har xil tablolar,

ekranlar va ko'rsatkichlar, binolarni yoritish va favvoralarni yoritish ham zamonaviy shaharning taraqqiyoti natijasidir.

Shunga qaramay ko'chalar va maydonlarni sun'iy yoritishning muhim vazifasi, kunning qorong'i paytlarida transport va piyodalarning harakatlanish xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir. Turli xil ko'rsatkichlar vayorug'lik signalizatsiyalari ham ana shu maqsad uchun xizmat qiladi.

Mikrorayonlarda, mahallalarda o'tish yo'llari va aholi yuradigan yo'llar, ko'p qavatli uylarga kirish joylari, hamda bolalar maydonlari, sport maydonlari va boshqalar yoritib turiladi. Bundan tashqari tashqi sun'iy yoritish, binolarni, haykallarni, favvoralarni yoritish, yorug'lik reklamalari kechki shaharning ma'lum bir me'moriy-badiiy obrazini tashkil qiladi, shahar ko'chalari va maydonlarining shuningdek, ayrim binolar va inshootlarning fazoviy tuzilishini ochib berishga yordam qiladi: kunduzgi barcha qurilmalarning tashqi ko'rinishiga bog'liq bo'lsa, kechqurun esa yoritish yordamida vujudga keltirilayotgan shahar manzarasiga bog'liq bo'ladi.

Mikrorayon hududlarini yoritish

Mikrorayonlar hududi kechqurun va kechasi mikrorayondagi trotuarlardan, piyodalar xiyobonlaridan, bog'dan foydalanuvchi aholi uchun qulay sharoit yaratish maqsadida yoritiladi. Shular bilan bir vaqtda mikrorayon ichidagi o'tish yo'llari bo'ylab avtomobillarning harakatlanish xavfsizligi ta'minlanadi. Mikrorayon ichidagi o'tish yo'llari, yo'laklar, piyodalar xiyobonlarining yoritilishi katta transport ahamiyatiga ega bo'lgan ko'chalar va yo'llar uchun zamonaviy texnik sharoitlar bilan qabul qilingani kabi ravshanligi bo'yicha emas, balki ular sirtining gorizontal yoritilganligi bo'yicha me'yorlanadi. Mikrorayonlarda uylar guruhiga, maktablarga, bolalar bog'chalari va yaslilariga, do'konlarga, garajlarga olib boradigan o'tish yo'llari, shuningdek, bolalar bog'chalari va yaslilar, maktablar, do'konlar, oshxonalar va boshqa madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari hamda mikrorayondan chiqish uchun olib boradigan piyodalar yo'llari va xiyobonlar yoritiladi. Binolarning bevosita fasadi bo'ylab joylashgan piyodalar yo'laklari va trotuarlar odatda binoga kiraverishda o'rnatilgan yoritkichlar bilan yoritiladi. Mikrorayondagi bog'larni tojga o'xshash yoritkichlar bilan e'ritish maqsadga muvofiq, bunda fonarlarni shunday joylashtirish kerakki, qorong'i tushganda yoritkichlar yorug'ligi bog'ga kiraverishda va uning asosiy qismlarida kattalar dam oladigan maydonchalarda, bolalar o'ynaydigan maydonchalarda va jismoniy mashqlar bajariladigan maydonchalarda yaxshi ko'rinish imkoniyatlarini yaratsin. Mikrorayonlarda yoritkichlarni joylashtirishda shunga ham e'tiborni qaratish kerakki, ulardan tushayotgan yorug'lik turar joylarning derazalaridan

ichkariga tushib aholini bezovta qilmasin. O'tish yo'llari burilmalarida chiroqlar o't o'chirish mashinalarining o'tib ketishiga halal bermasligi kerak.

Istirohat bog'lari, bog'lar, xiyobonlar, yo'laklarni yoritish.

Istirohat bog'lari, bog'lar, xiyobonlar, yo'laklarni sun'iy yoritish ko'cha va maydonlarni yoritishdan keskin farq qiladi. Ko'chalarda va maydonlarda kunning qorong'i tushgan paytlari transport va piyodalarning xavfsiz harakatlanishi uchun qulay sharoit yaratishga harakat qilinadi, buning uchun yaxshi ko'rish va harakat xavfsizligini ta'minlovchi bir qator sharoitlarni va yo'l qoplamalarining yorug'lik-texnik hissalarini hisobga olgan holda yorug'likning bir tekis taqsimlanishi, yo'lning qatnov qismlarini yoritish ravshanligiga nisbatan qat'iy qoidalariga rioya qilingan holda joylashtiriladigan katta quvvatli yoritish qurilmalari qo'llaniladi. Istirohat bog'lari, bog'larda, xiyobonlarda va ko'chalarda sun'iy yoritish boshqa maqsadlarni ko'zda tutadi: a) ko'kalamzorlashtirilgan hududning ajoyib kechki landshaftini yaratib, bunda yoritish vositalaridan o'simliklarning (daraxtlarning, butalarning, gullarning alohida guruhlarini ajratib, suv basseynlari va favvoralar bilan birga qo'shilgan holda) amaliy me'moriy komponenti sifatida yoritish vositalaridan foydalanish; b) ko'kalamzorlashtirilgan hududlarga keluvchilar uchun yaxshi ko'rish holatini yaratish, bu ayniqsa katta bog'larda juda muhimdir; v) xiyobonlarda, maydonlarda, suv havzalari yonida yaxshi dam olish uchun sharoit yaratish. Bu sharoitlarni bajarish uchun kuchli yoritish vositalaridan foydalanish talab etilmaydi, aksincha ko'kalamzorlashtirilgan hududlarning ayrim elementlarining yoritilish yumshoq, tinchlantiruvchi bo'lishi kerak. Bunda istirohat bog'lari, bog'lar, xiyobonlar va yo'llarni yoritish printsiplari va usullari bir-biridan keskin farq qiladi, oqibatda, ularni alohida ko'rib chiqish kerak.

Park va bog'larni yoritish

Mamlakatimizda shahar parklarining o'ziga xos ko'rinishi - madaniyat va istirohat bog'lari mavjud. Bunday madaniyat va istirohat bog'lari o'nlab va yuzlab gektarlar bilan o'lganuvchi va odatda faol dam olish hamda sokin dam olish hududlariga ajratiladi. Shunga mos ravishda park hududining ayrim qismlarini yoritish o'zining tavsifiga ko'ra ham, o'zining yorug'lik texnik xossalari ko'ra ham o'ziga xos bo'lishi tabiiy. Ommaviy foydalanish uchun ko'p miqdordagi binolar, inshootlar va madaniy - oqar suv, ko'ngil ocharmaydonlar joylashgan faol dam olish hududlarida yoritish qurilmalari ayrim binolarni; kinoteatr, yozgi teatr, sirk, ko'rgazma pavilionlari, attraksionlar majmui, restoranni yorug'lik bilan ajratib tantanavorlik kayfiyatini yaratish kerak. Bunga alohida yondoshuv va hatto turli xil yeritkichlar va ularning tayanchlaridan foydalanib, ayrim joylarda yoritilganlikni kontrastlashtirish bunga yordam berishi mumkin. Masalan,

attraksionlarning keng maydonlari oz miqdordagi yoritkichlar bilan yetarlicha yoritilganlikni ta'minlovchi, baland tayanchlarga o'rnatilgan kuchli lyumensentsiyali yoritkichlar bilan yoritilishi mumkin. Ko'rgazma zallari, kinoteatrlar, restoranlar oldidagi maydonchalarni yoritish baland tayanchlarga o'rnatilgan tojsimon ëritkichlar bilan qiziqarli tarzda hal etilishi mumkin, bunda shu bilan bir vaqtda binolarni va ularni o'rab turgan o'simliklarni ham biroz yoritish katta samara berishi mumkin. Yoritkichlarning turlari va tayanchlarning shakli, shuningdek bino va maysazorlarni yoritish faol dam olish hududlarining umumiy loyiha majmuida belgilab qo'yilishi kerak, chunki, faqat shu uslubda loyihalashdagina yaxlit badiiy-me'moriy va muhandislik yechimiga erishish mumkin. Bunda yoritkichlar (tayanchlar) shakli har biri alohida bino va inshootning me'moriy obrazi bilan faqat kechasi emas, kunduzi ham uyg'unlashib ketishi kerak. Yoritish qurilmalari umumiy majmuada ustuvorlikka da'vogarlik qilish kerak emas, tayanchlarni imkon boricha yengil va ixcham, loyihalanayotgan majmuaning umumiy manzarasi bilan uyg'unlashib ketadigan qilib tayyorlash kerak. Sokin dam olish hududlari uning asosiy vazifasiga muvofiq lyumensentsiyali lampalaridan yoki cho'g'lanma lampalardan foydalangan holda tojsimon yoritkichli chiroqlar bilan yoritkichlarni joylashtirish hududning umumiy tuzilishini hisobga olgan holda, xizmat ko'rsatuvchi binolar (kafe, qiroatxona, kioskalar va b.) oldidagi maydonlarning yoritilishini kuchaytirish, burilishlarda yoritkichlarni joylashtirish, shu bilan bir vaqtda ko'kalamzorlashtirish me'morchiligining kechki manzarani yaratuvchi –daraxtlar guruhi, butalar, gulzorlarni biroz yoritish yo'li bilan yaxshi ko'rish imkonini beradi. Bundan tashqari park hududining relyefini ham hisobga olib, uning baland joylari, keskin qiyaliklari, vohachalari va hokazo joylarini yoritish bog'ning tavsifiga qarab amalga oshiriladi. Uncha katta bo'lmagan hududni bog' odatda sokin dam olish hududi sifatida foydalaniladi, uning yoritilishi ham shunga ko'ra hal etiladi. O'z tavsifiga ko'ra parklarga yaqin keladigan katta bog'larda yoritish parklardagi kabi hal etiladi.

Xiyobonlarni yoritish

Xiyobonlar ular joylashgan maydonning elementi hisoblanadi. Shuning uchun ham xiyobonning yashil o'simliklari rejasi va me'morchiligi kabi, uni yoritish tizimi ham shu maydonning umumiy majmuida hal etiladi. Bu butun maydonni yoritishni yaratishni istisno qilmaydi. Aksincha, xiyobonda toj ko'rinishidagi yoritkichlardan kiraverishda xiyobonning kechki manzarasiga esda qoluvchi yagonalikni va maydonning umumiy manzarasi bilan uyg'unlashuvchi o'ziga xoslik ruhini berish mumkin. Bu ayniqsa, xiyobonda favvoralar va haykallar mavjud bo'lganda yanada yaqqol

namoyon bo'lishi mumkin. Bunga misol tariqasida Toshkentdagi "Pushkin maydoni" dagi xiyobonning yoritilishi yorqin misol bo'ladi.

Ayrim hollarda xiëbonning hududi uncha katta bo'lmaganda va favvora hamda haykal bo'lmaganda xiyobonni unga yaqin maydon qismidagi èritkichlar bilan yoritish mumkin. Bulvarlarni yo'laklar bo'ylab umumiy qatorda xiyobonni o'rab turgan daraxtlar bo'ylab joylashgan toj ko'rinishdagi yoritkichlar bilan yoritish maqsadga muvofiqdir. Fonular bunday joylashtirilganda shuni ham e'tiborga olish lozimki, odatda bundadaraxtlardan tushadigan soyalar sayr qilib yuruvchilarda yorug'lik va soyaning qo'shilishidan yoqimli kayfiyat tug'dirishi mumkin.

Ayrim ob'ektlarni yoritish

Qorong'i tushganda shaharning kechki manzarasida ayrim me'moriy ansambllar, binolar, monumentlarni biroz yoritish katta ahamiyat kasb etishi mumkin. Bunday yoritish shahar landshaftida ustuvor bo'lgan binolar va inshootlarni ta'kidlab o'tish imkonini beradi va shaharning kechki ko'rinishini yanada ta'sirchan qilib ko'rsatadi. Binolar va boshqa inshootlarni yoritish umumiy rang bilan yoki konturli yoritish bo'lishi mumkin (bunda binoning konturi yoritiladi). Konturli yoritish asosan bayramlar vaqtida illyuminatsiyalarda, shaharning ko'pchilik maydonlari va ko'chalari, binolar, monumentlar, ko'priklar, favvoralar ommaviy yoritilganda qo'llaniladi. Binoni biroz yoritishda, uning ayrim eng qiziqarli va jozibador qismlari yanada kuchliroq yoritiladi, bu esa yoritilayotgan bino chegarasida yorug'lik kontrastini (keskin farqlanishini) yuzaga keltiradi va binoning va atrofdagi landshaftning kechki manzarasidan olinadigan umumiy taasurotni kuchaytiradi.

Arxitektura ansambllarini va ayrim binolarni yoritish ob'ektidan tashqari o'rnatilgan proyektorlar vositasida amalga oshirilishi mumkin, binoning alohida qismlarini yoritishda esa yoritilayotgan binoning o'ziga ham o'rnatilishi mumkin. Proyektorlar va boshqa yorug'lik manbalari yashirin holda joylashtiriladi va shunday yoritiladiki, uning yorug'lik oqimlari ko'cha yoritishning me'yordagi manzarasini buzmasin, transport vositalari haydovchilari va piyodalar ko'zini qamashtiradigan darajada ta'sir ko'rsatmasin. [9]

III-BOB.

SHAHAH AHOLISI IJTIMOIIY-MADANIY SALOHIYATI VA ESTETIK EHTIYOJLARINI BARQARORLIGINI TA`MINLASH

3.1. Shahar muhitining arxitekturaviy va dizayn yechimida funktsionallik va kompleksli yechimini ta`minlash tamoyillari.

Insonlarni yashashi, ishlashi va dam olishiga mo`ljallanib tashkillashtirilgan makonni yoki muhitni shakllantirish me`morchilikning bosh vazifasidir. Biroq, uning vazifasi bu bilan cheklanmaydi. Ma`lumki har qanday muhit odamlar ruhiyatiga, ongning shakllanishiga ta`sir ko`rsatadi. Chunki me`morchilikda qo`llaniladigan xajmiy shakllar, moddiy muhit biron bir ko`rinishga ega bo`ladiki, ular odamlar didiga mos, ongiga ijobiy yoki salbiy ta`sir etishi mumkin.

Shahar muhitini me`moriy shakllantirish o`ziga xos qulaylik va shinamlik yaratishgina emas, balki insonning go`zalikka bo`lgan ehtiyojini qondirish, u yashayotgan jamiyat madaniy xayoti, xalqchil milliy an`analari va ilg`or estetik tuyg`ularini o`zida aks ettirish kabi vazifalar ham kiradi.

Shaharning me`moray shakllanishi insonning moddiy va ma`naviy ehtiyojlarini qondiradi. U insoniyat jamiyati yashash va dam olish vositalarining qanchalik zaruriy qismlari (turar joy uylari, jamoat binolari, bog` va parklar, hiyobonlar va boshalar) dan tarkib topsa huddi shunchalik ishlab chiqarish vositalari (zavod va fabrikalar, elektr va issiqlik stantsiyalari, ishlab chiqarish korxonalari)dan ham tarkib topadi. Umumiy ma`noda shahar muhitini me`moray shakllantirish – bu insoniyatning yashashi va faoliyati uchun sun`iy shakllantiriladigan amaliy va manaviy extiyojlarga mo`ljallangan moddiy muhitlar tizimidir. Ayni paytda shaharsozlik san`ati hamdir. Shu boisdan shahar muhitini me`moray shakllantirish muayyan hayot tarsi, davr talabi, muayyan estetik va mafkuraviy g`oyalar majmuasi o`zining moddiy va badiiy ifodasini topadi. [10]

O`zbekistonda yuz berayotgan siyosiy va ma`naviy rivojlanish, jamiyatni demokratlashtirish bo`yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy texnik taraqqiyot mamlakatimizdagi shaharsozlik sohasida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlarini jadal rivojlantirish imkoniyatini berdi.

Shu bilan birga shaharsozlik sohasi ushbu zamonaviy bosqichda hududiy tizimlaming yangi masshtablari, rejalashtirish va kelajak istiqbollarinin yangi loyihaviy muddatlari, shaharlami loyihalash va qurishning yangi muammolari bilan yuzma-yuz keldi. Bu esa yosh mutaxassislar - shaharsozlarni tayyorlashga yangicha yondashuvni talab etadi. Ular shaharsozlik sohasida barcha yutuq va kamchiliklami o`rganib

chiqib, oldingi tajribalar asosida malakaviy ko`nikma va mahoratga ega bo`lishlari lozim. Bu o`z navbatida bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanib borayotgan O`zbekistonning yangi shaharsozlik strategiyasini hayotga tatbiq etish mezonidir.

O`zbekiston shaharlarining zamonaviy rivojlanishi to`xtovsiz urbanizatsiya jarayonida amalga oshadi. Bu o`z navbatida jamiyat hayotining barcha jabhalarida ko`zga tashlanadi va shaharlar ahamiyatining o`sib borayotganidan dalolat beradi. Urbanizatsiyaning o`ziga xos tomoni bu, shahar aholisining katta va yirik shaharlarda to`planishidir va bu jarayonning natijasi - yashash muhitining yangisini shakllantirish va eskisini rekonstruksiya qilish talabining oshishidir. Hududlarni arxitekturaviy-rejaviy tashkil etish masalasi, ulardagi tabiiy-ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechishda shaharsozlik uslublarini qo`llash zamonamizning dolzarb vazifasiga aylandi.

Yashash muhitini shakllantirish butun shaharsozlik muammolari majmuasini hal etishga bog`liq. Bu muammolar o`zida shahar va uning yashash hududi (turar joy tumanlari va kichik tumanlar) rejaviy strukturasini mukammallashtirish, turarjoy va jamoat binolari, savdo va xizmat ko`rsatuvchi markazlar loyihalarini zamonaviy va kelajak talablariga moslashtirgan holda loyihalashni aks ettiradi. [8]

3.2. Binolarni shakllantirish yondashuvida shahar muhitini tabiat qurshoviga integratsiyalash (yaxlit holga keltirish) nuqtai nazaridan o`zgartirish.

Bugungi kunda zamonaviy qurilish texnologiyalarining jadal rivojlanishi arxitektorlarga yangi binolarning shaklini erkin tanlash imkonini bermoqda. Barqaror muhitni noreal imkoniyatlari me`morchilik ob`ektlarini yaratish texnologiyalari bilan uzviy bog`liqdir. Me`morchilik ob`ektlari muhitni saqlab qolish yoki uni yo`q qilish imkoniyatiga ega. Atrof-muhitni saqlashga qaratilgan, tabiiy komponentlarni me`morchilik ob`ektlari tarkibida ko`llash qimmatliroq bo`lmoqda.

Ushbu yondashuvning dolzarbligi so`nggi o`n yilliklarda, asosan xorijiy amaliyotda, me`moriy-qurilish jarayonining yangi sifati, xususan, "yashil" uslub, "yashil" arxitektura va ekoarxitektura kabi bir qator atamalarining kelib chiqishidadir.

Me`morchilik ob`ektlarida tabiat komponentlarini turli xil usullarini kiritish muhitning sifati, integratsiyasi va barqarorligini ta`minlamoqda va bu landshaft dizaynining muhim vazifalaridan biri bo`lib kelmoqda.

Binolarning ekologik sifati zamonaviy qurilish materiallarini qo`llash bilan namoyon bo`ladi. SHahar muhitida optimal ekologik sharoit muximdir.

Me'morchilik ob'ektlarining shahar muhitida barqaror rivojlanishini ta'minlash vazifasi landshaft-ekologik integratsiyasini xal qilish imkonini beradi.

SHahar ichidagi antropogen ob'ektlarni integratsiyalaydigan usullardan biri, yuzalarni gazon ko'rinishida kaskadli ko'kalamzorlashtirishdir. Bundan tashqari bino fasadi qiyofasining yuzasida tabiat elementlari chiziqlarini o'zgartirish, konturlarni kiritish, to'liqinsimon diogonal chiziqlarni ishlatish kerak. Me'morchilik ob'ektlarining ekologik effekt nuqtai nazaridan talqin qilishda, yashil ko'kalamzor maydonlarining o'sishi namlik va bino atrofida kislorodning oshib borishiga olib keladi.

Landshaft dizaynining bir qator turli xil usullari binoning alohida qismlarini turli talqin qilish imkonini beradi. Xususan, yuzalarga o'simliklardan aplikatsiya qilib qo'yib chiqish usulida chirmashib o'sadigan o'simlik(yovvoyi uzum, pechak va boshqa)lar turinining turli xil variantlarini bino fasadi va karkasida qo'llash xisobiga vertikal ko'kalamzorlashtirishni kengaytiradi. Ushbu usulning o'ziga xos kompozitsion imkoniyatlari devor yuzasi va tabiiy komponentlarning grafikli va siluetli o'zaro harakatlaridadir.

Sun'iy landshaft komponentlari va dizaynerlik yondashuvini tanlash qurilayotgan binoning hajmiy-fazoviy echimlariga kompozitsion uyg'unligi haqida so'zlaydi. Muhit barqarorligini oshirish va me'morchilik ob'ektlari qiyofasini estetik takomillishtirmoqlik uchun o'simlik kompozitsiyalari va sun'iy releflardan foydalanmoqlik darkor. Masalan, bino yaqiniga sun'iy landshaftni joylashtirish. Arxitektura ob'ektlarini uzoqlashtirish muhitga ta'sirini kengaytirish kerak.

Barcha gorizontal yuzalarda o'simliklarni qo'llash hisobiga butalardan tuzilgan skulptura kompozitsiyalari, gullaydigan daraxtlarning mosligi, dekorativ suv qurilmalari yuzasida gulli modullarni qo'llash barqaror muxitni saqlash variantlaridan bo'lishi mumkin. Xorijiy amaliyotda, masalan, German Grub tadqiqotida, bino tomlarida o'simliklarni qo'llash, qo'shimcha issiqlik va tovush izolyasiyalari, mikroiklim va binoning ko'rinadigan qoplamalarini estetik sifatini yaxshilash nuqtai nazaridan "yashil" tomlar samaradorligini oshirish xaqida gapiradi.

Aslida, qo'shimcha parvarish va sug'orishni talab qilmaydigan tom usti o'simliklari dizaynerlik yondoshuvidagi sun'iy landshaftning yana bir qo'shimcha imkoniyatlarini tashkil qiladi. Bino ustida landshaft kompozitsiyalarini yaratish usuli jaxon amaliyotida keng qo'llanilmoqda. Tuproq qatlamining differensial qalinligi 100 dan 300 mm gacha bo'lib, "intensiv" (ekspluatatsiya qilinadigan tom qurilmalari, turli xil o'simlik turlarini joylashtirish va suvni ushlab turish) va "ekstensiv" (asosan suvni ushlab turmaydigan dekorativ o'tlar va eryopar o'simliklar) ko'kalamzorlashtirish usullarining mosligidir. Me'morchilik ob'ekti

kompozitsiyasida bunday noan'anaviy "yashillik"ni maxsus dekorativ ekranlar yoki tom profilini ko'rinadigan o'simlik konturlari bilan murakkablashtirish qo'shib shakllantirish qurilayotgan binoning yuqori qismida o'z aksini topadi.

Bino konturiga tegish va suvli oyna usuli fasadning relefligiga va siluetining ifodaliligiga etarlicha soya, me'morchilik ob'ektiga kutilmagan rakursni berishi mumkin. Bino atrofi maydonida landshaftni tashkil etishda suv yuzasining tashqi ko'rinishini va xajmini tanlash ushbu usulning asosiy muammolaridan biridir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, me'morchilik ob'ektlari konturlarida plastik yoki bo'lmasa rangli elementlarni ko'llaganga qaraganda suvli oynani qo'llash omadliroq bo'ladi.

Me'morchilik ob'ektini suv oynasi ustida qo'llash usuli yanada qiziqroqdir. Buning natijasida aks o'yini binoning konturiga kirib boradigandek, uning aloxida qismlari esa suv yuziga tayangandek bo'ladi.

Me'morchilik binolarining tabiatdan urbanizatsiyali uzoqlashishi bilan bog'liq xolda shahar binolarida ekologik imkoniyatlarni shakllantirish zaruriyati sezilarli oshib bormoqda. SHuni ta'kidlash kerakki, shahar me'morchilik ob'ektlari integratsiyasining ekologik-landshaft tamoyillari shaxarda turar-joy va jamoat binolarini loyixalash doirasida barqaror rivojlanish bilan bog'liq masalaning muhim qismini xal qiladi.

SHu bilan birga, vizual shahar muhitining uyg'unlashmagan aloxida elementlari, xususan, tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan videoekologiya soxasida gomogen va "agressiv" joylar bir xil va bir ohangli shisha va betondan yirik jamoat komplekslari fasadini, bino shaklini tabiiy komponentlarni qo'shish mumkinligi xisobiga neytrallashishi mumkin. Bunday vaziyatda me'morchilik binolari bilan bog'liq sun'iy landshaft komponentlari vizual muhitning insonga ijobiy ta'sirni ta'minlash uchun zurur vositaga aylanadi.

Zamonaviy qurilish texnologiyalari sifat jihatdan yangi darajada arxitektura va landshaft shakllarini xisobga olgan xolda binoning qiyofasi va fasadining tashqi ko'rinishini tanlash imkonini beradi. SHu bilan birga shahar atrofidagi yangi elementlar, asosan tabiiy sharoitlar xar doim xam tabiat komponentlari ijobiy moslashmaydi, mavjud baland relbaf, suvli muhit yoki o'simlik massivi kabi.

SHahar binolarini qurishda sun'iy landshaftni yaratish to'g'ri keladi. SHuning uchun xam, arxitektura shakllari va tabiiy landshaftni o'zaro ta'sir aspektlarini o'rganishda grafik va plastik xususiyatlarini qo'shimcha tarzda o'rganish kerak.

YAratilayotgan muhitning sun'iy xarakteriga aloxida e'tibor berish kerak. "Ikkinchi" tabiat yaratilish g'oyasi organik binoning bir shakldan boshqa shaklga o'tishi bilan bog'liqlikda yuzaga keladi, me'morchilik

ob'ektlari chegarasini qo'pol ko'rinishini "yuvi ketgan"dek bo'ladi, tabiat komponentlari xajmini tashkil qiladi. Bunday xolatda landshaft dizaynining roli tabiiy shakllarning "qarama-qarshi xarakatlari"ni bino rejasi va fasadining muayyan xarakterini xisobga olgan xolda bezashni o'z ichiga oladi. Me'morchilik ob'ektlarini muhit bilan kompozitsion aloqasini tushunishni, tabiiy landshaft integratsiyasida qo'llanishini ta'minlash, sun'iy landshaft elementlarini yaratishda o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Arxitekturaviy shakllarni tabiiy elementlar bilan to'ldirish usuli bino devori vertikal yuzasini kontrast yumshatishda ishlatiladi. O'tuvchi kompozitsion elementlar turli xil o'simlik shakllari xisobiga shakllanadi.

Bino rejasining konfiguratsiyasini aniqlash va poydevor qismini to'ldirishda tuproq bilan qoplangan o'simliklar va modulli gul kompozitsiyalari me'morchilik ob'ektlarini er yuzasi bilan "qattiq" biriktirilishdan uzoqlashish imkonini beradi. Xajmiy shakllardan pog'onalarni yaratish, tabiiy va sun'iy materiallar yuzasi fakturasining kontrast munosabatlari binoning ko'rinishiga qo'shimcha vertikal xilma-xillikni kiritadi. YUqori kompozitsion imkoniyatlarni bunday usulda qo'llanilishi qiyshiq chiziqli geometrik rejalar yoki fasadning ortogonal bo'lmagan ko'rinishini qurish mumkin. To'ldiruvchi tabiiy komponentlar arxitekturaviy shakllarni dinamikligini ta'minlaydi. Bino asosidagi baland bo'lmagan devorlar orasidagi ko'kalamzor yuzalarni gazon ko'rinishidagi pog'onasimon echimlari er osti garajlarini qurilishi funksional va kompozitsion bog'liq bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Karimov I.A.** YUksak ma'naviyat-engilmas kuch. Toshkent, 2007.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 26-apreldagi PF-2595-sonli "O'zbekiston Respublikasida arxitektura va shahar qurilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.- T., 2000.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 13 avgustdagi 223-sonli "Respublikada landshaft dizaynini rivojlantirish haqidagi dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori. - T., 2013.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 1-maydagi PF-5030-sonli "O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. - T., 2017.
5. **Сычева А.В.** Основы ландшафтного дизайна. – Минск, 2004.
6. **Гарнизоненко Т.С.** Spravochnik sovremennogo landshaftnogo dizaynera. Rostov-na-Donu, 2005.
7. **Теодоронский В.С., Сабо Е.Д., Фролова В.А.** Stroitelstvo i ekspluatatsiya ob'ektov landshaftnoy arxitektury. Moskva, 2008.
8. **Hamidjanov M.H.** Kichik me'moriy shakllarni konstruksiyalash. Toshkent, 2013.
9. **Jonas Lehram.** Water in the mutual Gardens. The Canadian Architect/November – India, 1997.
10. **Uralov A.S., Sadikova S.N.** O'rta Osiyo an'anaviy "CHorboq" uslub i va zamonaviy bog'-park san'ati. Toshkent, 2012.
11. **Tyuder E.K.** Landshaftnyy dizayn i ob ustroystve sada. Xarkov, Belgorod, 2012.
12. **Berdiev E.T., Xolmurotov M.Z., Maxmudova G.B.** Manzarali bog'dorchilik va ko'kalamzorlashtirish. Toshkent, 2017.
13. **Qalandarov M.M.** Ko'kalamzorlashtirish ishlari. Toshkent, 2013.
14. **Сычева А.В., Титова Н.Р.** Landshaftnyy dizayn. Minsk, 1984.
15. **Ojegov S.S., Uralov A.S., Raximov K.J.** Landshaft arxitekturas i va dizayni. Samarqand, 2003.
16. **Raximov K.D., Uralov A.S.** SHarq mamlakatlarining bog'-park san'ati. Toshkent, 2012.
17. **Nefyodov V.A.** Gorodskoy landschaftnyy dizayn. Sankt-Peterburg, 2012.
18. **Uralov A.S., Jonuzoqov A.E., Balgaeva SH.A.** O'zbekiston qishloqlarida landshaft arxitekturasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari (Samarqand viloyati misolida). Samarqand, 2015.
19. **Dobronravova E.A., Sulaymonova SH.M.** Landshaft dizayni. 2-qism. Toshkent, 2012.

20. **Raximov K.D.** Bog'-parklarni loyihalashning zamonaviy yo'nalishlari. Toshkent, 2016.
21. **Hamidjanov M.H. va boshqalar.** Landshaft arxitekturasini qurilmalari va dizayni. Samarqand, 2016.
22. **Uralov A.S., Hamidova D.A.** Landshaft arxitekturasini va dizaynining er reliefi bilan bog'liq qurilmalarini shakllantirish bo'yicha uslubiy qo'llanma. Samarqand, 2012.
23. **Mutaev B.B., Jonuzoqov E.A.** Daraxt va butalarga figurali shakl berish san'ati.//Me'morchilik va qurilish muammolari ilmiy texnik jurnali, № 2, Samarqand, 2014.
24. **Isamuhamedova D.U., Adilova L.A.** SHaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasini. II-qism. Toshkent. TAQI, 2009.
25. **Nefyodov V.A.** Landshaftniy dizayn i ustoychivost sredy. Sankt-Peterburg, 2002.
26. **Qayimov A.Q., Turok Dj.** Aholi yashash joylarini ko'kadamzorlashtirish. Toshkent, 2012.
27. **Bogovaya I.O., Fursova L.M.** Landshaftnoe iskusstvo. Moskva, 1988.
28. **Taran I.V., Agapova A.M.** Peyzajnye gruppy dlya rekreatsiionnogo stroitelstva. Novosibirsk, 1981.
29. **Jonuzoqov A.E., Karimova D.E.** Daraxtlar va butalar dekorativligi. "O'zbekistonda shaharsozlik, landshaft arxitekturasini va dizaynini rivojlantirishning dolzarb muammolari" mavzusidagi Respublika amaliy konferensiya materiallari, SamDAQI 14-15 may, Samarqand-2018
30. **Sycheva A.V.** Landshaftnaya arxitektura. – M., 2007.

Internet saytlari

1. <http://pruddecor.ru/>
2. <http://azimut.at.ua/>
3. <http://atlandis.ru/>
4. <http://gardensculpture.ru/>
5. <http://land-style.net/>
6. <http://www.ooo-garden.com/>
7. <http://www.land.krs.ru/>

Monografiya

Nasimova SH.S.

**SHAHAR MUHITIDA KICHIK ME`MORIY
SHAKLLAR**

Subscribe to print 6/12/2025. Format 60×90/16.

Edition of 300 copies.

Printed by “iScience” Sp. z o. o.

Warsaw, Poland

08-444, str. Grzybowska, 87

info@sciencecentrum.pl, <https://sciencecentrum.pl>

Monografiyada shahar muhitida kichik memoriy shakllarga doir umumiy tushunchalar, shahar muhitida kichik memoriy shakllarning kelib chiqishi, shakllanish tarixi, arxitektura va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning uslubiy yo'nalishlari, arxitekturada shakllarning o'zgaruvchanligi, jonli tabiatdagi konstruktiv va biotektonik shakllar, shahar muhitida kichik memoriy shakllar sohasidagi ilmiy-texnik kashfiyotlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Bundan tashqari, O'rta Osiyo mamlakatlari arxitekturasida shahar muhitida kichik memoriy shakllar yo'nalishi hamda bioarxitekturaning tipologik ko'rinishlari yoritib berilgan. Shuningdek, shahar muhitida kichik memoriy shakllarning istiqbollari, tasnif tizimi, amaliyotda qo'llanilishining asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan. Monografiya O'zbekiston Respublikasidagi barcha loyiha tashkilotlarida faoliyat yuritib kelayotgan loyihachi arxitektor va dizaynerlar hamda mazkur sohaning barcha qiziquvchilariga mo'ljallangan.

